

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

FILOLOGIYA FAKULTETI

O'ZBEK TILI YO'NALISHI

4-kurs 454-guruh bitiruvchisi

NIGORA MADUMAROVANING

“PUBLITSISTIK MATNLARDA SIYOSIY ATAMALARNING
QO'LLANILISHI”

mavzusidagi

BITIRUV-MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar:

H.DO'SMATOV,
o'qituvchi

Farg'ona - 2011

Mundarija:

Kirish-----

1. Bob. Lingvopolitologiya va sotsiollingvistika haqida_____

1.1. Siyosiy diskurs va uning o'ziga xos tomonlari_____

1.2. Lingvosotsiologiya va matbuot tili_____

2.Bob. Publitsistik nashrlarda siyosiy atamalar_____

2.1. Ommabop uslub haqida_____

2.2. Siyosiy matbuot va uning til xususiyatlari_____

2.3. Mustaqillik va siyosiy atamalar_____

**2.4. Ommabop nashrlarda siyosiy atamalar bilan bog'liq norma
muammolari**_____

Umumiy xulosa_____

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati_____

KIRISH

Respublikamiz Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlab aytganidek, demokratik huquqiy davlatni va adolatli fuqarolik jamiyatini shakllantirish sharoitida «... matbuot, ommaviy axborot vositalari shunday qudratli kuchga aylanmoqdaki, o'z kelajagini o'ylaydigan har qaysi xalq va millat buni sezmasligi, his etmasligi mumkin emas...»¹

Jamiyatimiz har bir a'zosi zimmasiga yuklatilgan bu mas'uliyatli vazifaning amalga oshishida soha mutaxasislari bilan bir qatorda boshqa kasb egalari, ayniqsa, ommaviy axborot vositalari xodimlarining ham birday faol ishtirok etishlarini jamiyat taraqqiyotining o'zi talab etmoqda. Binobarin, o'ziga xos murakkabliklarga ega bo'lgan siyosat tilida ifodalangan tushuncha, mazmun va mohiyatni imkon qadar xalqqa tushunarliroq, ixcham va soddaroq uslubda yetkazishda bu soha mutaxasislarining xizmati kattadir.

Mazkur ish huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati barpo etish yo'lidan dadil borayotgan mamlakatimiz aholisining siyosiy savodxonligini, ijtimoiy-siyosiy bilimlarini shakllantirishga salmoqli hissa qo'shayotgan siyosiy matbuot tili va uslubiy xususiyatlarini tadqiq etishga, shuningdek, lingvopolitologiya va siyosiy diskursning o'ziga xos tomonlarini ochib berishga qaratilgan. Bu esa bitiruv malakaviy ishi mavzusining dolzarbligidan dalolat beradi.

Davr taqozosiga ko'ra jadal sur'atlar bilan rivojlanayotgan va mukammallashib borayotgan siyosat sohasi hamda ular tilidagi o'zgarishlar, xususan, shunga bog'liq holda gazeta janrlarining til xususiyatlari bo'yicha bir qator ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirildi. Jumladan, H.Dadaboev, Z.Xolmonova, A.O'rozboev, A.Abdullayev kabilar siyosiy atamashunoslik va ularning o'zbek tilida ifodalanishi, siyosiy terminlar lug'ati, siyosat tili, ruscha siyosiy atamalarning istiqlool davri taraqqiyoti, siyosat tili va siyosatshunos nutqi kabi mavzularda olib borganlar.

¹ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. -T.: Manaviyat, 2008, 135-bet.

G'arb va rus tilshunosligida gazeta tili, lingvosotsiologiya bo'yicha tadqiqotlar ancha erta boshlangan.

Turkiyshunoslikda ham bu dolzarb muammo tadqiqi bo'yicha bir qator izlanishlar olib borilgan.

O'tgan asrning 30-40 yillarida V.V. Reshetov, A.X. Borovkov, keyinchalik M.Mirzayev, F.Abdullayev, I.Rasulevlar o'zbek matbuoti tilining lisoniy xususiyatlarini o'rganishga bag'ishlangan dastlabki tadqiqotlarni olib borgan bo'lsalar, A.Abdunazarov, B.Turdaliyev, M. Rahmonov, A. Boboyeva, T.Qurbonov, G'.Karimov, A.Abdusaidov kabi olimlar publitsistik uslubning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganishga, G'.Mirzayev, S.Xidirov, N.Abdulazizovalar siyosiy tushunchalarning jurnalistika amaliyotida qo'llanilishi, istiqlol davri o'zbek matbuotiga bag'ishlangan izlanishlar olib bordilar.

Lekin siyosat bilan tilning aloqadorligi natijasida jahon tilshunosligida maydonga kelgan politolingvistikaning asoslarini ochib berishga qaratilgan ishlar rus tilshunosligida mavjud bo'lsa-da¹, o'zbek tilshunosligida hali yetarlicha yaratilmagan.

Bitiruv malakaviy ishidan ko'zlangan asosiy maqsaddan kelib chiqib, uning oldiga quyidagi vazifalar qo'yiladi:

- politolingvistikaning asoslarini o'rganish;
- siyosiy diskursning o'ziga xos tomonlarini ochib berish;

¹ Чудинов А. П. Россия в метафорическом зеркале: когнитивное исследование политической метафоры. Екатеринбург, 2001; Российская политическая лингвистика: этапы становления и ведущие направления. М., 2003. // Устюгова Т.В. Феномен политического текста. Алтунян А.Г. Анализ политических текстов: Учебное пособие. – М.: Университетская книга; Логос, 2006. – 384 с. // Волков А.Г. Использование политического текста институтами власти// http://www.nbu.gov.ua/Articles/KultNar/knp47/knp47_140-42.pdf // Гаврилова М.В. Президентский дискурс как предмет политической лингвистики//Тезисы докладов. IV Всероссийский конгресс политологов «Демократия, безопасность, эффективное управление: новые вызовы политической науке». М., 2006. С. 63 – 65. // Гаврилова М.В. Лингвистический анализ политического дискурса // <http://politanalysis.narod.ru/gavrilova3.html> // Демьянов В.З. Интерпретация политического дискурса в СМИ// <http://evartist.narod.ru/text12/09.htm> // Репина Е.А. Политический текст как средство речевого воздействия//<http://www.psych-portret.ru/collection/repina.html>

- siyosiy matbuot, uning mundarijasi, tili va uslubiy xususiyatlarini tadqiq etish;
- siyosiy matbuot tili va uslubiy xususiyatlarida sodir bo'lgan yangi sifat o'zgarishlarini tahlil qilish;
- siyosiy matbuot matnida leksik normaga amal qilish holatlarini o'rganish;
- siyosatga doir tushunchalarning jurnalistika amaliyotida qo'llanilishini tilshunoslik nuqtai nazaridan tahlil etish;
- siyosiy nashrlarda orfografik va punktuatsion norma muammolarini o'rganish.

Ushbu ishning tadqiqot obektini politolingvistikaga doir rus tilshunosligida yaratilgan ishlar, respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan siyosiy partiyalar nashrlari, asosan, O'zbekiston liberal demokratik partiyasining «XXI asr» gazetasi tashkil etadi. Shuningdek, mavzu bayonida respublikamizda va Farg'ona viloyatida chop etilayotgan boshqa ayrim gazetalar va Internet yangiliklariga ham murojaat qilindi.

Bitiruv malakaviy ish kirish, ikki asosiy bob, umumiy xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, _____ sahifani tashkil qiladi.

Istiqlol tufayli siyosiy matbuotga bo'lgan e'tibor tubdan o'zgardi. Milliy davlatchiligimiz, siyosatshunosligimiz qaytadan shakllandi va to'xtovsiz rivojlanmoqda. Respublikamiz Prezidenti I.A. Karimov tomonidan mazkur masalaga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Inson huquqlariga oid qator tadbirlarning amalga oshirilishi, qonun hujjatlarining yaratilishi, sud-huquq islohotlarining o'tkazilishi, siyosatshunoslikka oid darslik, qo'llanmalarning nashr etilayotganligi, ensiklopedik va ruscha-o'zbekcha izohli lug'atlarning yuzaga kelganligi fikrimizga dalildir.

Siyosiy savodxonlikni amalga oshirishda siyosiy terminologiyaning ham o'ziga xos o'rni bor. Binobarin, mazkur sohada ilmiy izlanishlar olib borish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham olimlar ushbu yo'nalishda qator ilmiy-tadqiqot ishlari olib bormoqdalar.

Kuzatishlarimizdan ma'lum bo'ladiki, tilshunos olimlar tomonidan siyosatshunosligimizni o'rganish bo'yicha bir qator jiddiy ishlar qilingan. Bundan tashqari, turli gazeta va jurnallarda gazeta tili, uning leksik, grammatik, orfografik va punktuatsion xususiyatlari haqida ham maqolalar, munozarali chiqishlar, bahslar berib borilgan. Birgina jurnalistlar uyushmasi nashri bo'lgan «Muxbir» jurnalining o'tgan asrning 70-yillaridagi sonlariga nazar tashlansa, «Til haqida suhbat» rukni ostida turkum maqolalar berilganligining guvohi bo'lish mumkin.¹ Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot instituti «O'zbek tili va adabiyoti» jurnalining 2000-yillardan keyingi sonlarida publitsistik uslub va uning til muammolariga bag'ishlangan bir qator maqolalar chop etilgan.²

Shunisi e'tiborga molikki, biz tanlagan muammo – aholining siyosiy madaniyatini yuksaltirish, siyosiy savodxonligini oshirishda matbuotning o'rni, bu muammoga lingvopolitologik va lingvosotsiologik aspektda yondashish masalasi keyingi yillarda birdaniga paydo bo'lib qolmay, o'ziga xos tarixga egadir. Jumladan, «Muxbir» jurnalining yetmishinchi yillardagi sonlarida turkum maqolalar, shuningdek, «O'zbekiston matbuoti» hamda «O'zbek tili va adabiyoti» jurnalida e'lon qilingan R.Rasulovning «Tilga e'tibor ramzi», A. Jo'rayevning «So'z shamshir», H. Tojimatovning «Tilimiz sofligi uchun», S.Qorayevning «O'ynab yozsang ham, o'ylab yoz», N. Nurmuhammedovning «Tilimizning qonun qoidalariga rioya qilaylik» maqolalari fikrimizni tasdiqlaydi. Yuqoridagi maqolalarda siyosiy bilim targ'ibotida ommaviy axborot vositalarining o'rni yoritilib, ular oldida turgan muhim vazifalar tahlil qilib berilgan hamda aniq takliflar kiritilgan.

Mustaqillik sharoitida o'zbek matbuoti oldida turgan dolzarb masalalar birinchi navbatda soha mutaxasislarini jiddiy o'yga toldirgani va uning oldida

¹ Qarang: Бобоева А. Газета тилининг баъзи грамматик-стилистик хусусиятлари ҳақида // Мухбир, 1976, №7, 34-36-б; Рустамов Х. Вергул ҳам маъно билдиради// Мухбир, 1976, №8, 38-40-б; Муҳаммаджонова Г. Газета тили ва сўз бойлиги// Мухбир, 1976, №10, 30-31-б; Туропова М. Жумлалар пухта бўлсин// Мухбир, 1976, №11, 42-44-б.

² Qarang: Алпонова С. Фитрат публицистикасида миллий истиқлол мавзуси//Ўзбек тили ва адабиёти, 2000, №2, 54-56-б; Жамилова Б.Истиқлол даври ўзбек болалар публицистикаси// Ўзбек тили ва адабиёти, 2003, №6, 74-76-б; Абдусаидов А. Матбуот тилида окказионал фразеологизмлар// Ўзбек тили ва адабиёти, 2004, №4, 84-86-б.

turgan vazifalarni chuqur anglab yetish masalasi, eng avvalo soha mutaxassislarini tashvishga solganligi Azim Suyunning «O'zbekiston ovozi» gazetasining 1998- yil 15-oktyabr sonida bosilib chiqqan «Nima qilmoq kerak?», Ahmadjon Meliboyevning «O'zbekiston adabiyoti va san'ati» gazetasining 1998- yil 16-oktyabr sonida chop etilgan «Nimadan boshlamoq kerak?», shuningdek, Xurshid Do'stmuhammadning «Hurriyat» gazetasining 1998-yil 21-sonida chop etilgan «Matbuot: dardga da'vo bor», Nurboy Jabborovning «FIDOKOR» gazetasining 2002-yil 3-sentyabr sonida chop etilgan «Matbuot – adolat minbari» nomli maqolalari sarlavhalar mazmunidan yaqqol sezilib turadi. Kuyunchaklik bilan yozilgan bu maqolalarda bu jamiyat – daraxt, matbuot shu daraxt shoxida yetilgan meva ekanligi, gazeta bosmaxona qaramog'ida emas, bosmaxona gazeta qaramog'ida bo'lishi kerakligi, gazeta jamiyatda ko'prik vazifasini o'tashligi, ommaviy axborot vositalari yangicha tafakkurni, yangi dunyoqarashni shakllantirishga xizmat qilishi zarurligi haqidagi fikrlar ilgari surilgan.

Matbuot sahifalarida tilimizdagi o'zgarishlar, matbuot tilidagi yutuq va kamchiliklarga ham alohida o'rin ajratib kelinmoqda. Jumladan, Do'stmurod Abdurahmonning «Vatan» gazetasining 1992-yil 11-sonida bosilgan «Imloni buzmag, u-qonun. Ammo...» nomli, T.Ernazarovning «Ma'rifat» gazetasining 2003-yil 28-iyun sonida bosilgan «Tilimizdagi o'zgarishlar: u jurnalistlarni ham qiziqtirmaydimi?» nomli, A.Meliboyevning «Milliy tiklanish» gazetasining 2005-yil 28- oktyabr sonida chop etilgan «Xushtakni kim chaladi?» nomli maqolalarida aynan matbuot sahifalarida uchrab turadigan loqaydlik, sovuqqonlik, beparvolik, balandparvozlik kabi illatlarga, radio- televideniye ko'rsatuv va eshittirishlardagi bachkana reklama lavhalariga nisbatan tanqidiy fikr- mulohazalar ilgari surilgan.

Biz tanlagan mavzuga aloqador bo'lgan bu kabi maqolalar miqdoran qancha ko'p bo'lmasin, siyosiy matbuot tili, siyosiy gazeta va jurnallarda terminologiya, adabiy norma, uslubshunoslik muammolariga qay darajada rioya qilinayotganligi ilmiy jihatdan tadqiq etilmagan. Shuning uchun ham ushbu bitiruv- malakaviy ishimizda aynan mana shu masalaga, ya'ni bugungi siyosiy matbuot tilining lingvosotsiologik xususiyatlariga ham e'tibor qaratildi.

BIRINCHI BOB. Lingvopolitologiya va sotsiolingvistika haqida.

1.1. Siyosiy diskurs va uning o'ziga xos tomonlari.

Lingvopolitologiya (lingvosiyosatshunoslik), yoki siyosiy lingvistika ikki mustaqil fan - lingvistika va siyosatshunoslik tutashishi natijasida vujudga kelgan lingvistikaning tarmog'i bo'lib, u boshqa lingvistik fanlar bilan (ayniqsa, pragmlingvistika, kommunikativ va kognitiv lingvistika) mustaqil bog'liq.

A.P.Chudinovning ta'kidlashicha, zamonaviy siyosiy lingvistikaga zamonaviy tilshunoslikning barcha yetakchi xususiyatlari xos bo'lib, bular: aponsetrizm (til hodisalarini tadqiq etishda til shaxsi boshlang'ich asos bo'lib xizmat qiladi), ekspensionizm (lingvistikaning tadqiqot doirasiga bir qator yondosh muammolarni kiritish, ya'ni uni kengaytirish), funksionalizm (tilni harakatda, funksiyada o'rganish), eksplanatorlik (nafaqat tildagi faktlarni bayon qilish, shu bilan bir qatorda ularni tushuntirish). (Chudinov, 2003, 4-bet).

90- yillarning o'rtalariga kelib ushbu yo'nalishda bir qator diqqatga sazovor ishlar paydo bo'ldi (Altunyan, 1993, 1999; Proskuryakov, 1999; Sheygal, 2000-yil va b.qlar). Aynan mana shu tadqiqotlar siyosiy lingvistikaning keyingi o'n yillikdagi rivojlanishini belgilab berdi. 2003- yili yangi fan bo'yicha rus tilidagi birinchi o'quv qo'llanma – A.P.Chudinovning «Siyosiy lingvistika» kitobi nashrdan chiqdi.

Siyosiy lingvistikaning markaziy tushunchasi siyosiy diskurs bo'lib, u diskursning alohida turi hisoblanadi va o'z oldiga siyosiy hokimiyatni egallash va ushlab qolishni maqsad qilib olgan. Siyosiy diskurs siyosiy lingvistikada ko'p planli va ko'paspektli hodisa. Yagona butunlikni hosil qiluvchi elementlar kompleksi sifatida ko'riladi. Siyosiy diskurs – «siyosiy diskussiya (bahs) larda qo'llaniladigan, an'analar bilan yo'g'rilgan va tajribada tekshirilgan barcha til birliklarini yig'indisidir». (Baranov, Kazayevich, 1991, 6-bet). Ushbu tavsif «siyosiy diskurs» tushunchasi mohiyatini keng ochib beradi.

So'nggi yillarda siyosiy diskursni tadqiq qilishga bag'ishlangan ishlardan biri E.I.Sheygalning «Siyosiy diskurs semiotikasi» bo'lib, uning nuqtai nazarida siyosiy diskurs, diskursning boshqa turlari kabi ikki o'lchamga ega: real va virtual. Real o'lchov deganda tadqiqotchi, ma'lum ijtimoiy makonda sodir bo'luvchi nutq faoliyatini, shuningdek, bir-biriga o'zaro ta'sir ko'rsatuvchi lingvistik, paralingvistik va ekstralingvistik omillar faoliyati natijasida paydo bo'luvchi asarlar (matnlar) ni tushunadi. E.I.Sheygalning fikricha, diskursning virtual o'lchovi-semiotik makon bo'lib, u verbal va noverbal belgilarni qamrab oladi, uning dennotati siyosat olami iboralar tezaurusi, ushbu muhitda muloqot qilish uchun o'ziga xos bo'lgan nutq harakatlari va janrlar modellari hisoblanadi.

Yu.A.Sorokin siyosiy diskursni uning g'oyaviy diskurs bilan munosabatlari orqali belgilaydi: «Siyosiy diskurs – g'oyaviy diskurs turlaridan biridir. Farqi shundaki siyosiy diskurs – eksplisit pragmatik, g'oyaviy diskurs esa – implisit pragmatik... Diskursning birinchi turi – subdiskurs, ikkinchi turi – metadiskurs». (*Sorokin, 1997, 75- bet*).

Shunday qilib, lingvistik adabiyotda «siyosiy diskurs» atamasi ikki xil ma'noda qo'llaniladi: tor va keng. Keng ma'noda u siyosiy doiraga aloqasi bo'lgan, (hech bo'lmaganda bitta qismi) muloqot shakllarini o'z ichiga oladi. Tor ma'noda siyosiy diskurs-diskursning turi bo'lib, uning maqsadi-siyosiy hokimiyatni egallash, saqlash va amalga oshirish. Biz diskursni keng ma'noda qabul qilib, unga matnlarning tug'ilishi va qabul qilinishi natijalari va jarayonini ham kiritamiz. Bundan tashqari, biz zamonaviy lingvistikada «diskurs «atamasini nutqning va nutq asarlarining har xil turlarini belgilash uchun qo'llaymiz.

Keyingi yillarda siyosiy diskursni tadqiq etish Belarus Respublikasida ham faol olib borilmoqda. Bunda eng avvalo jamoa bo'lib yozilgan I.V.Uxanova - Shimiganova tahriridagi «Siyosiy diskursni tadqiq etish metodologiyasi» monografiyalar turkumini (hozircha bir necha alohida nashrlar chiqarildi) ta'kidlash joiz. Muammo bo'yicha adabiyotlarning qisqacha sharhi quyidagi xulosalarga kelishimizga imkon beradi: hozirgi kunda siyosiy diskursning hamma qabul qilgan tavsifi mavjud emas, biroq biz uni ma'lum ijtimoiy - ruhiy kontekstda

(bunda jo'natuvchi va qabul qilib oluvchilarga ularning siyosiy hayotda ishtirok etishiga qarab ma'lum ijtimoiy vazifa yuklanadi), verbal kommunikatsiya sifatida qabul qilishimiz mumkin. Siyosiy diskurs institutsional muloqotning turi sifatida bir qator konstitutiv belgilar tizimiga ega bo'lib, qator vazifalarni bajaradi. «Siyosiy diskursning vazifasi – nafaqat tasvirlash (ya'ni referensiya emas), balki oluvchi (adresat)da niyat uyg'otib, ishonch uchun zamin tayyorlash va uni harakatga undashdir» (Demyankov V.Z. WWW- Dokument). Shu sababli siyosiy diskursning samaradorligini ana shu maqsadga muvofiq belgilash kerak.

Siyosiy hokimiyat ma'lum darajada til yordamida amalga oshiriladi, chunki u siyosatchiga repitsipientning shaxsiy doirasiga kirishga oddiy usullar («men» o'rniga «biz» olmoshini ishlatib) til tanlash (bilingvizm sharoitida), shuningdek manipulyatsiyaning murakkab usullari (til o'yinlari va b.q) ishlatiladi. Manipulyatsiya deganda biz aholiga o'z qarashlarini, fikrini, harakat usullarini majburan o'tkazishni tushunamiz, bunda adresat (uzatuvchi) ularni oldindan yolg'on, lekin o'zi uchun foydali deb hisoblash mumkin. Shu bilan birga til hukmronligi har qanday jamiyatda qo'llaniladi. Misol uchun diktatura (yakkahokimlik) sharoitida til jamiyat ustidan ommaviy nazorat qilishda maxsus xizmatlardan ham zarurroq vositadir. Kuchli demokratik jamiyatda tildan unumli foydalanilganda hokimiyat uchun kerakli bo'lgan fikrni faol shakllantiradi, ya'ni hokimiyatni egallashda va ushlab turishda zarur vosita hisoblanadi.

Siyosiy diskursda tilning faoliyatini tadqiq qilishda ikki muammoga duch kelinishi muqarrardir: hokimiyat tili va til hokimligi. Fikrimizcha, ular quyidagilarda farqlanadi: hokimiyat tili–hozirgi hokimiyat qanday gapiradi, tilning vosita va usullaridan qanday foydalaniladi va bu «sof lingvistikaning tadqiqot obektidir». Tilning hokimligi esa, bu–til vosita va usullari omma ongiga qanday ta'sir ko'rsatishidir, bu soha esa siyosiy lingvistikaga taalluqli.

Siyosatchining nutqi omma ongining kerakli torlarini cherta olishi kerak, uning mulohazalari adresatlarning fikr va baholashlar «ummoni» ga, siyosiy diskurs «iste'molchilariga» mos kelishi kerak.

Shu sababli mohir siyosatchi omma ongiga hamohang ramzlar, arxetiplar va marosimlar bilan muomala qiladi. Rus siyosiy nutqiga harbiy va «kasalxona» leksikasiga qurilgan metaforalar keng qo'llash xos bo'lib quyidagilarni misol qilib keltirish mumkin: saylovchi uchun jang (kurash), axborot urushi, demokratiyaga hujum, diplomatik urushlar, shok bilan davolash, jamiyat davolanish arafasida, hukumat inqirozi.

Tilning hokimiyati qarama-qarshi bo'lib, bir tomondan u har qanday fikrlovchi odamga tushunarli. Siyosatda so'z munosabati bilan bo'ladigan qizg'in bahslar, ish yuzasidan bo'ladigan bahslardan kam bo'lmasligi hech kim uchun sir emas. Rus siyosatchilarining «dollar» so'zi yuzasidan olib borgan kurashini eslang. Yana bir misol: OAV (ommaviy axborot vositalari) da Chechenistondagi harbiy harakatlarning yoritilishi. Bir qator OAVda federal kuchlarga qarshi kurashayotgan chechenlarni terrorchi yoki separatistlar (ajralib chiqish tarafdorlari) emas qo'zg'olonchilar, harbiy harakatlarni esa terrorchilarga qarshi operatsiya emas, urush deb ataganlar, o'zlarini «begonalar» deyishgan bo'lsalarda, terrorchilardan ko'p ham farq qilmasdilar.

So'z o'yinlari misolida til o'yinlari elementlarini ko'rib chiqamiz. Siyosatchilar qanday so'zlarni o'ynaydilar? Biz ularni o'ynashni maqsad qilganimiz yo'q, faqatgina ulardan foydalanish tamoyillari va usullarini ko'rib chiqamiz. Avvalo bular, *mamlakat* va *davlat*, *xalq* va *elektorat* (*yuqori tabaqalar*), *xalq irodasi* va shu kabilar. Agar biz «xalq»so'zini uning asosiy ma'nosida qo'llasak, «mamlakat aholisi, davlatda yashovchilar», aynan shuni umummillat miqyosidagi siyosatchilardan kutishimiz kerak va biz ixtiyorsiz ravishda turli ijtimoiy guruhlariga mansub bo'lgan, turlicha qarashlar va manfaatlarga ega bo'lgan millionlab odamlarni nazarda tutamiz. Biroq aynan mana shu narsa siyosiy diskursda e'tiborsiz qoldiriladi. Ularning nuqtai nazaricha, xalq «super-ego» sifatida turlicha fikr, qarashlar, qadriyatlarga ega bo'lmasligi kerak. Siyosatchining fikricha faqatgina mamlakat rahbarlari, shaxsan ularni va hokimiyat partiyasini qo'llab-quvvatlaganlarni xalq deb atash mumkin; shu munosabat bilan boshqarayotgan rejimga qarshi aytilgan har qanday tanqid xalqqa nisbatan

xurmatsizlik deb baholanadi. Rasmiy nuqtai nazardan o'zgacha qarashga ega bo'lgan, hokimiyatning yoki faraz qilingan dushmanlari, bular «begonalar», ma'lum davrlarda «xalq dushmanlari» hisoblaganlar va xalqning to'la huquqli vakillari hisoblanmaganlar. Demak, siyosatchilar o'z manfaatlarini ko'zlab ko'plab til birliklarining ma'nosini, eng avval leksik ma'nosini o'zgartiradilar.

Shunday qilib, til o'yini so'z semantikasini o'zgartirilishi asosiga qurilishi mumkin: *xalq* va *aholi*, *xalq* va *elektorat*. Har ikki juftlikda *xalq* so'zi ma'nosi o'zgartiradi, qo'shimcha ma'no kasb etadi: birinchi munosabatda bo'lgan obektlarga, ijobiy yoki neytral munosabatni shakllantirishga ehtiyoj bo'lganda, ya'ni modallik aylana o'qini so'lga siljitish orqali. Bu maqsadda neytral yoki ijobiy konnotatsiyali so'zlardan foydalaniladi.

Til materiallari tahlili zamonaviy bosqichda siyosiy tilga ekstralingvistik omillar, ayniqsa jahon siyosiy tizimidagi omillar ta'sir ko'rsatmoqda. Hozirgi paytda negativ konnotatsiyali yumshoqroq leksikadan ko'ra, peyorativ leksika ko'proq qo'llanilmoqda. Misol tariqasida, qalang'i qasang'ilar, malay, yugurdak kabi so'zlar, ko'plab fikrlar. Masalan, Fradkov (Rossiya federatsiyasining sobiq bosh vaziri) o'z vazirlariga quyidagicha maslahat berdi: «Suv yuzasida suzib yuradigan narsalarni saralab olish kerak».

Negativ (salbiy) konnotatsiyali so'zlar ham ko'proq ishlatilmoqda, bundan quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin: ijtimoiy-siyosiy leksikada negativ konnotatsiyali so'zlarning ustunlik qilishi, xavfli lingvistik sindrom (biror kasallik uchun xarakterli alomatlar majmui) bo'lib, xalqning ijtimoiy va ma'naviy hayotidagi jiddiy deformatsiya (shakliy o'zgarish) lardan dalolat beradi. Mashhur ruhshunos, faylasuf E.Fromning kuzatishlarida nemis jamiyati yaxshi tomonga o'zgarganligi sababli, Marksning keksalik davridagi tilida tajavvuzkorlik, emotsionallik anchayin susayganligi ta'kidlangan.

U yoki bu so'zning konnotatsiyasi va modalligini o'zgartirishda evfemizmlar (yorqin baholovchi komponentga ega bo'lmagan so'zlar) yordam beradi: «Arzon patetika (nutqdagi ko'tarinkilik) va sulloh vatanparvarlik to'lqinlari partiya bochkalaridan hamon oqib chiqmoqda»...

Ko'pincha siyosatchilar tomonidan ishlatiluvchi so'zlar denotat sohasida mos kelsada, konnotatsiya bo'yicha farqlanadi: separatshilar va xaloskorlar, kontrterrorchilik operatsiyasi va urush. M.N.Epshtyn ularni o'zaro sinonimiya munosabatlarida bo'lgan pragmemalar deb ataydi. Yana bir misol: bir davlatning boshqasiga qarshi harbiy harakatlari natijasida hokimiyat almasha, bu voqeaga munosabatdan kelib chiqib uni ozod qilish, bostirib kirish, okkupatsiya, agressiya deb ham atash mumkin, ya'ni gapirayotgan uchun qaysi taraf «o'z dunyosiga» aylanishiga qarab.

Bunda faqat konnotatsiya sohasida farq paydo bo'ladiki, shuningdek, asosiy ma'no o'zgaradi, shu bilan birga bu farqlar birinchi planga chiqadi, demak ularning konnotativ ma'nosi xiralashadi. Misol uchun biz Rossiya yoki Belarusni demokratik yoki totalitar davlat deb atashimizga qarab, ushbu mamlakatlardagi siyosiy vaziyatdan xabardor bo'lmagan adresat ular haqida qarama-qarshi tasavvurda bo'ladi, chunki ushbu tushunchalar ortida ijtimoiy hayotning barcha qarama- qarshi jihatlari turadi.

So'zlar bilan o'yin qilgan siyosatchi «qora–yaxshi niqoblangan oq» ekanligini isbot qilib beradi, ya'ni o'z isbotini «X bu U» formulasi bo'yicha quradi. *Ular (KPRF) da o'z layoqatliliklarini isbotlash yetarlicha vaqt bor edi, ular Yalmog'iz kampir qanchadan buyon bo'lgan bo'lsa, shunchadan buyon mavjud* (D.Rogozin).

Shunday qilib leksik manipulyatsiyalar siyosiy diskursda yoki so'z ma'nosini o'zgartirib yoki ob'ektlarni belgilash uchun ma'lum so'zlarni tanlab olish bilan o'zini faol namoyon qiladi. So'zning semantik qurilishidagi bunday o'zgaruvchanlik, konnotatsiyalarni asosiy ma'nolardan ajratib olishdagi qiyinchiliklar, bu ma'nolarning variantlilik, obektivni subektiv bilan almashtirishdagi erkinlik va aksi siyosatchilar tomonidan bilib turib atayin qo'llaniladi. Bularning barchasi siyosatchilar nutqida demagogik suiste'molga olib kelishi mumkin. Buni so'z o'yini deb bo'ladimi? Ularni so'z bilan o'ynashish desa to'g'riroq bo'lar edi, chunki oqibati juda jiddiy bo'ladi.

1.2. Lingvosotsiologiya va matbuot tili.

Tilshunoslikda «ijtimoiy-siyosiy leksika» ta'rifiga turlicha yondashuv mavjud. Ba'zi bir olimlar unga «ijtimoiy sinflar o'rtasidagi iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy munosabatlarni ifodalovchi leksik birliklar majmui»¹ deya ta'rif bersa, boshqalari mazkur to'plamga tarixiy jarayonlar nomini ham kiritadilar. Professor H.Dadaboyev ijtimoiy- siyosiy sohaga oid lug'aviy birliklarni terminologik nuqtai nazardan tadqiq qilib, quyidagicha ta'rif beradi: «ijtimoiy-siyosiy terminologiya leksikaning faol qo'llanuvchi qatlamlaridan biri bo'lib, u ma'lum bir tarixiy formatsiyani belgilab beruvchi tarixiy-ijtimoiy, iqtisodiy-siyosiy, madaniy, diniy kabi bosh faktorlar ta'sirida shakllanadi va rivojlanadi».²

Shu jihatdan olib qaraganda, sotsiallingvistika va lingvosotsiologiya munosabati qanday? Ularni farqlashning qanday metodologik usullari mavjud? Horijda va mamlakatimizda bu sohada qanday ishlar amalga oshirilgan?

Bu savollarga javob berish uchun gapni bir oz uzoqdan, ya'ni xx asr boshlaridan, butun dunyo tilshunosligida tilga semiotik nuqtai nazardan yondashuv asosiy o'rinni egallagan davrlardan boshlashga to'g'ri keladi. Chunki aynan shu davrlardan Ferdinand de Sossyur g'oyalari asosida tilga belgilar sistemasi sifatida qaraldi va til birliklarining sistemaviy tabiatini, ommaga ta'siri masalalarini ochib berishga asosiy e'tibor qaratildi. Buning natijasida til sistemasi bilan uning funksiallashuvi, bu jarayonda til sistemasidagi invariant birliklarning turlicha variantlashishi va o'zgarmas birliklarning o'zgaruvchanlik kasb etishi namoyon bo'ladi. Tilshunosning bosh vazifasi bevosita kuzatishda xilma-xil ko'rinishlarda namoyon bo'luvchi lisoniy birliklar zahirida yashiringan zotiy, o'zgarmas (invariant) birliklarni aniqlash va bu birliklarning til sistemasidagi o'rnini belgilashdan iborat bo'ldi. Bu esa tilshunoslikda o'tkinchi hodisalardan barqaror mohiyatlarni aniqlash imkonini berdi. Natijada tilning har bir sath birliklarining modellari va bu modellarning nutq jarayonidagi ko'rinishlari aniqlandi.

¹ Бурячок А.А. Формирование социально политической лексики. – Киев, 1983.

² Дадабоев Х. Алишер Навоий асарларидаги ижтимоий- сиёсий терминларнинг эски туркий обидалар лексикасига муносабати// Алишер Навоий таваллудининг 550 йиллигига бағишланган илмий конференция тезислари. - Тошкент: Фан, 1991.- Б.68.

Lingvistika va sotsiallingvistikaning asosiy metodologik muammolar haqida xx asrning 60-70 –yillaridagi qizg'in bahslar keyingi yillarda biroz susaydi. Biroq bu haqidagi tadqiqotlar to'xtab qolmadi. Bir qator muammolar yechilmay qoldi. Ijtimoiy to'qnashuvlar tili tadqiqi metodologik xarakterdagi bir qancha muammolarni sotsiallingvistika va sotsiologiya tilini farqlash orqali hal etilishini talab qiladi.

Sotsial lingvistika, sotsiallingvistika tarzida namoyon bo'lgan soha lingvistikadan ko'ra sotsiologiyaga yaqindir. Sotsiologik an'analar doirasidagi til va jamiyat munosabati bilan bog'liq bir qator g'oyalar soyada qolib ketdi. Aynan lingvosotsiologiya yo'nalishidagi sotsiokommunikativ jarayonlarning serqirra xususiyatlarini ochib beruvchi bir qator ishlar amalga oshishi mumkin.

1960-yillardayoq sotsiallingvistikaning tiklanish jarayonida ayrim tadqiqotlar (jumladan, g'arb olimlaridan R. Bell, R.Grosse, A. Noybert, rus olimlaridan L.B. Nikolskiylar) sotsiallingvistika va lingvosotsiologiyani farqlash zarurligini ta'kidlagan edilar. L.B.Nikolskiy nuqtai nazariga ko'ra sotsiallingvistika va lingvosotsiologiya o'rtasidagi farq «shunisi bilan ajralib turadiki, sotsiallingvistika u yoki bu ijtimoiy hodisa va jarayonlarning tilda aks etishini o'rgansa, lingvosotsiologiya tilga jamiyat faoliyatiga ta'sir ko'rsatuvchi faol sotsial faktor sifatida munosabatda bo'ladi».¹ Demak, lingvosotsiologiya tilning jamiyatga ta'sir etishini o'rganadigan tilshunoslik va sotsiologiya o'rtasidagi tutash sohadir. Shu nuqtai nazardan olib qaraganda, sotsiolingvistika lingvistikaning, lingvosotsiologiya esa sotsiologiyaning bir tarmog'idir. A.D. Shveytsar bu sohani tilshunoslik va sotsiologiya o'rtasidagi tutash soha sifatida qarash kerakligini ta'kidlaydi.²

Lingvosotsiologiya va sotsiolingvistikalarni bir-biri bilan bog'liq holda ko'rish maqsadga muvofiqdir. Ammo bu hodisalar bir-biri bilan qanchalar yaqin

¹ [www.ecsoeman.edu.ru\(socccis/msg/296116.html](http://www.ecsoeman.edu.ru(socccis/msg/296116.html)

² Yana qarang: [www.ecsoeman.edu.ru\(socccis/msg/296116.html](http://www.ecsoeman.edu.ru(socccis/msg/296116.html)

bo'lmasin, o'zaro farqlanadi ham. Lingvosotsiologiyaning muhim vazifasi lingvistik mexanizmlarni aniqlashdan iboratdir.

Lingvosotsiologiyaning predmeti ma'lum lingvistik konstruksiyalar yordamida ijtimoiy ta'sir ko'rsatish modellari xususiyatlarini aniqlashdir. Lingvosotsiologiya tilning jamiyat hayotiga ta'sirini, eng avvalo, tilshunoslik nuqtai nazaridan tadqiq etadi. G.G.Xazagerov o'zining «Ritorika lingvosotsiologiya sifatida» nomli maqolasida lingvosotsiologiya ni yangi ilmiy fan deb ataydi va bugungi kunda unga bo'lgan ehtiyoj har qachongidan ham ortganligini ta'kidlaydi.¹

Shunday qilib, *lingvosotsiologiya*, *lingvogeografiya* (tilshunoslikning alohida –alohida til hodisalarining territorial tarqalishini o'rganuvchi bo'limi), *lingvostatistika* (til sistemasi va nutq hodisalarini statistik metodlar qo'llab o'rganuvchi soha)², *lingvopragmatika* (gapdan anglashilgan mazmun bilan sub'ekt munosabatiga daxldor soha)³ kabi terminlar qolipida yasalgan tilshunoslik va sotsiologiya fanlarining tutash nuqtasidagi bir soha bo'lib, u tilning jamiyat hayotiga ta'sirini o'rganadi.

Siyosiy matbuot tilini aynan shu soha yo'nalishida tadqiq etishni tanlaganimizning boisi shundaki, siyosiy matbuotdan ko'zlangan bosh maqsad leksik, grammatik, uslubiy hamda o'ziga xos ekstralingvistik belgilari (xolislik, qat'iylik, rasmiylik, aniqlik, qisqalik, shaxssizlik, mantiqiy izchillik)⁴ bilan boshqa nutq uslublaridan sezilarli darajada farqlanadigan qonun tilini xalqqa sodda, ravon va tushunarli tilda yetkazib berishdan, shu yo'l bilan ularning siyosiy ongini oshirishdan iboratdir. Bitiruv-malakaviy ishdan ko'zlangan maqsad esa mana shunday mas'uliyatli vazifani o'z zimmasiga olgan siyosiy matbuot o'z vazifasini qay darajada oqlay olayotganligini lingvosotsiologik nuqtai nazardan tadqiq etishdir.

¹ Qarang: www.nir.ru/sj/sj3-01 khaz. html

² Хожиев А . Лингвистик терминларнинг изоҳли луғати. -Т.: Ўқитувчи, 1985, 51-б.

³ Ҳакимов М. Ўзбек тилида матннинг прагматик талкини Филол. фан. док дисс. автореф. - Т., 2001, 14-б.

⁴ Кўчимов Ш. Ўзбекистон Республикаси қонунларининг тили. Филол. фан. номз. дисс. автореф.- Т., 1995, 6-б.

Mustaqillikdan so'ng ijtimoiy- siyosiy hayotning boshqa sohalari qatori ommaviy axborot vositalari (bundan buyon – OAV) faoliyatini ham tubdan yangilanish jarayoni boshlandi. Buning asosiy sababi–O'zbekistonda shakllanayotgan siyosiy-demokratik o'zgarishlar o'zbek jurnalistikasi hamda matbuoti zimmasiga qator yangi vazifalarni ko'ndalang qo'ydi. Jumladan, matbuot oldida yangi jamiyat va uning mohiyati, olib boriladigan islohotlar, ularning yo'nalishi va bosh maqsadi, respublika hayotida vujudga kelgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar mazmunini fuqarolarga ro'y-rost ochib berishdek mas'uliyatli vazifa paydo bo'ldi. Shuningdek, istiqlolning milliy qadriyat ekani, u ham boshqa qadriyatlar singari o'sib-o'zgarib, boyib boruvchi ma'naviy boylik ekanini keng jamoatchilikka yetkazmoq, fuqarolarni mustaqillikni mustahkamlash hamda islohotlar uchun kurashishga da'vat etmoq zarurati yuzaga keldi.

Buning uchun shaklan va mazmunan yangi matbuotning o'zini barpo etish lozim bo'lib qoldi. Kun tartibiga ko'tarilgan mustaqillik matbuotining o'zi qanday bo'lishi, xususan, u qanday tamoyillar asosida faoliyat yuritishi kerak, degan masala ham g'oyat dolzarblik kasb etdi. Chunki sobiq ittifoq davridan qolgan matbuot partiya yakkahokimligiga asoslangan kuchli siyosiy tuzumning minbari hisoblanib, qattiq nazorat (senzura) ostida ishlar, g'oyaviylik, partiyaviylik, sinfiylik uning asosiy tamoyillari hisoblanar edi. «Sotsialistik turmush tarzi» deb ataluvchi qolipga zid yoki bu g'oyaga begona bo'lgan maqola, material albatta chop etilmas, umuman, sobiq sho'rolar jurnalistikasida hayotni biryoqlama, bo'yab-bejab ko'rsatish, «umuminsoniy qadriyatlarni targ'ib qilish» bahonasida ularga keng o'rin berilib, milliy-ma'naviy qadriyatlar va madaniy merosga mensimay qarash kayfiyati kuchli edi.

G'oyaviy va mafkuraviy jihatdan qolipda bo'lgan matbuot tili ham o'ziga yarasha, ya'ni siyqasi chiqqan, hadeb takrorlanaverib, odamlarning medasiga tekkan shablon gap va iboralardan iborat edi.

Mustaqillikdan keyingi qisqa davr ichida milliy matbuotimiz o'ziga xos tarixiy rivojlanish yo'lini bosib o'tdi. Ommaviy axborot vositalari faoliyatiga mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab e'tibor kuchaydi. Zero, bunday jiddiy

munosabat g'oyat tabiiy hol bo'lib, birinchidan, dunyoning deyarli barcha mamlakatlarida OAV jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy hamda siyosiy hayotida yetakchi o'rin tutadi. Ikkinchidan, gazeta-jurnallar, radio- televidenie har bir davlatda omma bilan hokimiyat o'rtasida o'ziga xos ko'priq – aloqa vositasi, oshkoralik ko'zgusi, haqiqat jarchisi bo'lib xizmat qiladi. Ushbu hayotiy haqiqatni chuqur tushunib respublikamiz rahbariyati OAV va ularda xizmat qilayotgan ijodkorlarning erkin, keng qamrovli, oshkora faoliyat ko'rsatishlari uchun zarur bo'lgan barcha shart-sharoitlarni yaratishga katta ahamiyat berib kelmoqda. Jumladan, avvalo, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining III bo'limida maxsus XV bob ajratilib, undagi 67-moddada «Ommaviy axborot vositalari erkindir va qonunga muvofiq ishlaydi. Ular axborotning to'g'riligi uchun belgilangan tartibda javobgardir. Senzuraga yo'l qo'yilmaydi» deb belgilab qo'yildi.¹

Asosiy qonundagi ana shu so'zlarda yangi shakllanayotgan matbuotning islohotlar davriga xos asosiy tamoyillari ifodalab berildi. Ya'ni, haqiqiy demokratik matbuot chindan ham erkin bo'lmog'i, jamiyatdagi o'zgarishlarga yuqoridan yoki chetdan qilingan ko'rsatmalar bilan emas, balki o'z fuqarolik burch va vijdoni amri bilan yondashmog'i hamda baho bermog'i zarur. Binobarin, Asosiy Qonundagi yuqoridagi so'zlar bilan yangi matbuotning asosiy belgilari ya'ni biron-bir g'oyaga yoki mafkuraga qaram emasligi, erkin faoliyat yuritish huquqiga egaligi, haqqoniyligi uchun belgilangan tartibda javobgarligi kafolatlab berildi.

Biroq mustaqillikni mustahkamlash oson bo'lmaganidek, yangicha tafakkur va tamoyillarga asoslangan OAV ni yuzaga keltirish ham katta mehnat, tinimsiz izlanishlar talab qildi. Jumladan, mamlakatimiz rahbarining respublikada demokratik siyosiy jamiyat asoslari faol ravishda vujudga keltirila boshlagan bir paytda, ya'ni 1992- yilda e'lon qilingan «O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li» asarida ta'kidlanganidek, ijtimoiy va ma'naviy sohada qilinadigan ishlar qatorida «ijodning barcha turlarini rivojlantirish, odamlarning iste'dod va qobiliyatlarini namoyon etish uchun shart-sharoitlarni yaratish, ma'naviy mulkni

¹ Ўзбекистон Республикаси Конституцияси, 67-модда. - Т.: Ўзбекистон, 2003, 13-б.

himoya qilish» vazifasida alohida belgilab qo'yildiki, shubhasiz, bu fikrlar OAV ga ham bevosita taalluqli edi.¹

Yangicha OAV ning shakllanish jarayoni milliy o'zbek adabiy tilini yanada rivojlantirish, shu bilan birga, fuqarolar siyosiy ongi va madaniyatini yuksaltirishdek, muhim vazifalar bilan uzviy bog'liq holda sodir bo'ldi. Boshqacha aytganda, matbuotdagi tarkibiy o'zgarishlar adabiy tilimiz ravnaqi uchun kurash hamda inson huquqlari uchun qonuniy asoslar yaratish jarayoni bilan o'zaro uyg'unlik kasb etdi. «Hozirgi paytda qabul qilingan qonunlar va qonunlar hujjatlari ijrosi ustidan jamoat nazoratini, davlat hamda mansabdor shaxslarning faoliyati ustidan nazoratni amalga oshiradigan mexanizm sifatida ommaviy axborot vositalarining mavqeini kuchaytirish zarur. Ayni shu ommaviy axborot vositalari jamiyatimizning demokratik qadriyatlarini va tushunchalarini himoya qilishi, odamlarning siyosiy, siyosiy va iqtisodiy ongini shakllantirish bo'yicha faol ish olib borishi lozim»²

OAV oldiga jamiyat taqdiriga daxldor dolzarb masalalarni qo'ygan mazkur tarixiy ma'ruza (1999-yil) dan keyin matbuot va axborotga talab- ehtiyoj yanada kuchaydi, aholi turli qatlamlarining, avvalo, o'sib kelayotgan yosh avlodning bilim, ma'naviy va madaniy saviyasini oshirish manfaatlaridan kelib chiqib OAVni, noshirlik ishlari va matbaachilikni keng miqyosda rivojlantirish kun tartibiga chiqdi. Buning uchun esa so'z va matbuot erkinligini, oshkoralikni jamiyatda o'tkazilayotgan islohotlarning ochiqqligini ta'minlash, binobarin, OAV faoliyatini erkinlashtirish zaruriyati yuzaga keldi. Masalaning boshqa yana bir muhim tomoni–mustaqillikdan so'ng til va tilshunoslik sohasida ham islohotlar o'tkazish zarurati yuzaga kelgan, garchi davlat tili maqomiga ega bo'lsa ham, rus tili va boshqa tillardan ko'plab so'zlarning qabul qilinaverishi natijasida tilimiz qorishiq holga kelgan, mavjud adabiy normalar buzilgan edi. Bu ko'ngilsiz manzara, tabiiyki, birinchi navbatda OAV tilida namoyon bo'la boshlagan edi. Holbuki, matbuot tili namunaviy til sifatida jamiyatdagi milliy adabiy tilga bo'lgan

¹. Каримов И.А. Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура.- Т.: Ўзбекистон, 1996, 48-б.

² Каримов И.А. Ўзбекистон XXI асрга интилоқда. Т.: Ўзбекистон, 1999, 30-б.

munosabatlarni boshqarishi, til sofliги, ta'sirchanligi, aniqligi uchun kurashmog'i lozim edi.

Erkinlashtirish nima? Prezidentimiz nima uchun OAV oldiga erkinlashtirish, hokimiyatning to'rtinchi tarmog'i bo'lish vazifalarini qo'ymoqda? «Chunki ommaviy axborot vositalari erkin va mustaqil bo'lgandagina har qanday ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va jamiyat hayoti bilan bog'liq boshqa barcha jarayonlar to'g'risidagi haqiqat ifoda etilishi mumkin. Ommaviy axborot vositalarining erkinligi va mustaqilligini kafolatlash va shu orqali turli muammolarni keng jamoatchilik bilan muhokama qilish, odamlarga o'z fikrlarini erkin bildirishiga kengroq yo'l ochish jamiyatni erkinlashtirishning asosiy tamoyillaridan biridir».¹

Jurnalist va adib X.Do'stmuhammad yozganidek: «Demokratiya va farovonlikni oshkoraliksiz tasavvur etib bo'lmaydi. Xususan, davlat tizimini fuqarolarning o'z-o'zini boshqarish tizimiga o'tkaza borish orzusida yashayotgan hech bir kishilik jamiyati oshkoralikni o'rnatmay turib, bu niyatiga erisha olmaydi. Chunki demokratik jamiyatning bosh belgisi fuqaro boshqaruvidir. Hamonki, fuqaro boshqaruvi shakllandimi, demak, jamiyatni nazorat etish ham fuqaro zimmasiga tushadi. Jamoat nazoratining sinalgan va qulay vositasi esa – ommaviy axborot vositalari!».²

Demak, OAV o'z-o'zidan, birdaniga erkin bo'lib qolmaydi. So'z va matbuot erkinligi jamiyatning o'ziga, o'z-o'zini boshqarish kabi demokratik tamoyillarga, fuqarolarning erkinlik va demokratiyani qay darajada his etish va hurmat qilish ko'nikmalariga tayanadi. Binobarin, erkinlashmagan jamiyatda har qanday OAV ning so'zi puch bo'lib qolaveradi. Bu o'rinda ta'kidlash lozimki, matbuotdagi oshkoralik shunchaki yuzaki gap yoki tashqi belgi bo'lib qolmay, har tomonlama asoslangan, sohaning ijobiy va salbiy tomonlarini teran anglagan holda shakllangan axborot bo'lmog'i lozim.

Prezidentimizning mazkur ma'ruzasi hamda unga asosan 2002-yil 12-dekabrda qabul qilingan «Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida» gi

¹ Каримов И.А. Ўзбекистон XXI асрга интилоқда. Т.: Ўзбекистон, 1999, 173-б.

² Х.Дўстмуҳаммад. Хуриятнинг жозибаси ва юки. Хурият, 2002, 11 сентябрь.

Qonunning hayotimizga kirib kelishi natijasida mamlakatimizda erkin matbuotning siyosiy poydevoriga asos solindi va ushbu yilni ommaviy axborot vositalari hayotida tub burilish yili deb e'tirof etildi.¹ Undan keyingi yillarda e'lon qilingan «Axborotlashtirish to'g'risida» gi Qonun (2003-yil 11-dekabr) va «Ommaviy axborot vositalari faoliyatini yanada demokratlashtirish sohasidagi islohotlarning ustuvor yo'nalishlarini amalga oshirish Konsepsiyasi» bu yo'nalishda olib borilayotgan ishlarni tartibga soldi, OAV sohasini boshqarish va mustaqil faoliyat yuritishini, istiqbolli rivojlanish yo'llarini belgilab berdi.²

Ommaviy axborot vositalari faoliyatidagi tarixiy burilish vujudga keltirayotgan o'zgarishlarni bir qator markaziy nashrlarda keyingi yillarda sodir bo'layotgan o'zgarishlar misolida yaqqol ko'rishimiz mumkin. Chunonchi, avvalo, gazeta-jurnallar o'z faoliyat yo'nalishiga tanqidiy yondashib, ijodiy munosabatlarini takomillashtira borib, ijtimoiy-siyosiy masalalarga asta-sekinlik bilan bo'lsada o'z nigohi, mustaqillik davri talablari bilan yondasha boshladi.

Vaqtli nashrlarning tili va uslubida, rukn va sarlavha tanlashda, ko'tarilgan masalalarni xalqqa tushunarli, ta'sirchan ommabop shakl va usullarda yetkazishda bir qator ijobiy o'zgarishlar yuzaga keldi. Matbuot tili – jamiyatning namunaviy tili. Jamiyat hamisha undan andoza olgan, undan o'rgangan, unga moslashishga intilgan. Shu sababli, matbuot tili va undagi o'zgarishlar hamisha ziyoli, hur fikrli, ma'rifatparvar odamlarning diqqat nazarida bo'lgan. Binobarin, matbuot zimmasiga o'z tilining namunaviyligini saqlab qolgan holda, adabiy tildagi ilg'or o'zgarishlarni o'z vaqtida o'zlashtirish hamda ularni qo'llab-quvvatlash mas'uliyati ham yuklangan bo'ladi. Ana shu haqiqatni his etgan holda, adabiy til va matbuot tili, ulardagi ijobiy va munozarali masalalar muhokama maydoniga aylandi.³

¹ Misol uchun qarang: Hakimov J. Mustaqil, ўз-ўзини таъминлайдиган босма ОАВни ривожлантириш йўлида // Фуқаролик жамияти, 2006, №4, 22-27-б.

² Ўзбекистон Республикасининг «Аxborotlashtirish to'g'risida» ги Қонуни. // Хўжалик ва ҳуқук, 2004 йил, №4,3-8-б.; ОАВ фаолиятини янада ривожлантириш соҳасидаги ислохотларнинг устувор йўналишларини амалга ошириш Консепцияси // Фуқаролик жамияти (махсус сон) //2007 йил, 16-20-б.

³ Bu haqda qarang: Abdusaidova A. Журналист маҳорати // Ўзбекистон матбуоти. 2003, № 3, 5-7-б.; Ғафуров И.Вакт – учиб бораётган қуш / ХУҚУК, 2003 йил, 5 февраль; Йўлдашев Б. Тил таҳлили// Ўзбекистон матбуоти, 2003, № 3,18-19 б.

Gazeta janrlari miqdoriy jihatdan ko'payib, ularga xos bo'lgan aniqlik, operativlik (tezkorlik), umumlashtirish, ixchamlik talablariga ijobiy javob bera oladigan axborot materiallari ko'paydi. Gazetxon, jurnalxonlar bilan ochiq muloqotlarga, ayniqsa, siyosiy mavzudagi dialog, muloqotlarga ehtiyoj katta ekanligi ma'lum bo'ldi. Bahs, dialog, davra suhbat, munozara kabi publitsistik janrlarga tez-tez murojaat qilinishi odatiy tus oldi.

OAV sahifalaridagi faollashuv hamda erkin matbuotni shakllantirish yo'lidagi islohotlarni «Muharrir minbari», «Bosh muharrir minbari» ruknlari ostida berib kelinayotgan materiallar ham tasdiqlaydi. Bu o'rinda «O'zbekiston adabiyoti va san'ati» gazetasi, «Tafakkur» jurnallarida shu rukn ostida chop etilgan maqolalarni eslash maqsadga muvofiqdir. Mazkur nashrlar muharrir larining tashabbusi tufayli «Muharrir minbari» qisqa muddatda faol ruknlardan biriga aylandi hamda turli sohalarga doir dolzarb masalalarni, chunonchi, iqtisod, siyosat va ijtimoiy-ma'naviy sohalarda sodir bo'layotgan muammo qiyinchiliklarni jurnalist va rahbar nuqtai nazari bilan yoritishda yetakchilik rolini o'ynaydi. Masalan, birgina «O'zbekiston adabiyoti va san'ati» haftanomasining 2007-yil sonlarida ushbu rukn ostida ijtimoiy hayotning turli masalariga bag'ishlangan yigirmadan ziyod maqolalar e'lon qilinganini kuzatish mumkin.¹ Masalaning boshqa bir muhim jihati shundaki, mazkur ruknning ijtimoiy-siyosiy yo'nalishdagi gazeta-jurnallarga ham ijobiy ta'sir etishi natijasida «XXI asr», «Xalq so'zi», «Milliy tiklanish», «Adolat» kabi gazetalarda ham ushbu rukn ostida dolzarb mavzularga bag'ishlangan maqolalar e'lon qilindi.

Muhimi shundaki, bu maqolalarda siyosiy mavzularga jiddiy e'tibor qaratilib, sodda, ravon tilda yozilgan bu maqolalarda kundalik hayotimizda uchrab turadigan qonunbuzarlik holatlari tahlil etiladi, ularni bartaraf etishga oid fikr-mulohazalar o'rta tashlanadi, muammolarni bartaraf etishning qonuniy asoslariga oid takliflar beriladi.

Shuni alohida qayd etmoq lozimki, Prezidentimiz I.Karimov mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotini barqaror etishda OAVning rolini yanada oshirishni haqli

¹ Qarang: «Нексия керамки?» Ўз АС, 2007 йил, 12 январь; «Гап ховлидами?» 2007 йил, 30 март...в.б.

ravishda talab etmoqda. Prezident har bir nutq, ma’ruzalarida, albatta, matbuotning kundalik hayotimiz va islohotlar davridagi roli haqida, ularning keng imkoniyatlari to’g’risida to’xtalib o’tayotir. Buning boisi shundaki, matbuot va umuman OAVning demokratik rivojlanishdagi ahamiyati muttasil ortib bormoqda. Biroq ayni chog’da demokratik jarayonlarni chuqurlashtirishda ularning roli unchalik sezilmayapti, o’zlarini «to’rtinchi hokimiyat» sifatidagi imkoniyatlarini to’la ko’rsata olmayaptilar. Shuning uchun ham Prezidentning matbuot haqidagi ba’zi ma’ruzalarida OAV faoliyatiga jiddiy baho berilib, bu boradagi kamchiliklar asosli tanqid qilinmoqda. Jumladan, Prezident shunday deydi: «Ochig’ini aytganda, bizning matbuotimiz, televideniya va radio hozircha zamonaviy ish usullari va shakllarini egallab olgancha yo’q, xalqaro mezonlarga muvofiq emas. Matbuot sahifalarida va televideniyada chuqur tahliliy materiallar, jiddiy siyosiy, iqtisodiy va xalqaro sharhlar yo’q, bahs- munozara ko’rinmaydi.

Ayrim ommaviy davlat nashrlarining aniq fuqarolik pozitsiyasi va qiyofasi ko’zga tashlanmaydi. Ular asosan rasmiy xabarlarni e’lon qilish bilan cheklanmoqda»¹.

Mamlakatimiz rahbarining mazkur e’tirozlari mutlaqo asosli bo’lib, OAVning o’z ovozi o’z qiyofasini topishida ijobiy ta’sirga sabab bo’ldi. Shu bilan birga, Oliy Majlisning navbatdagi sessiyalarida OAVning siyosiy bazasini mustahkamlash masalalarining muhokama qilinishi va bir qator muhim qonunlarning qabul qilinishi katta ahamiyat kasb etdi.

OAV ga yangicha munosabatning vujudga kelishi deganda, avvalo mustaqillik sharofati bilan matbuotning jamiyat hayotida tutgan o’rni hamda mavqei tubdan o’zgargani, matbuotning mavzu qamrovi kengaygani, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy masalalarni yoritishda qonuniylik, haqqoniylik mezonlariga rioya qilinayotgani, ma’naviy-ma’rifiy, tabobat masalalariga alohida ahamiyat berilayotganini ta’kidlash zarur bo’ladi.

¹ Каримов И.А. Ҳозирги бочкича демократик ислохотларни чуқурлаштириш муҳим вазифалари.- Т.: Ўзбекистон, 1996, 34-35-бетлар.

Ma'lumki, matbuotning asosiy vazifasi–savodxonlik va yuqori nutq madaniyatini targ'ib etishdagi rolini bajarishdek muhim vazifaga mos bo'la boshladi.

Umuman, istiqlol yillarida matbuot tili madaniyatini oshirish, «quruq» gazeta tilini jonlashtirish, gazetxon bilan jonli tilda «so'zlashish» sari dadil qadamlar qo'yildi. Eng muhimi, matbuot tili ta'sirchanligi, ixcham va mazmunli yozish, keng axborotni qamrab olish, zarur muammolarni o'z vaqtida yoritish jurnalistlar sa'y-harakatining mezoniga aylandi.

II BOB: Publitsistik nashrlarda siyosiy atamalar.

2.1. Ommabop uslub haqida.

Ommaviy axborot vositalari uslubi publitsistik uslub sanaladi. Bu uslubning muhim xususiyati axborot berish va ta'sir qilish bo'lib, soddalilik, tushunarlik, ta'sirchanlik, adabiy til me'yorlariga qat'iy amal qilishdir.

Publitsistik uslubning ham og'zaki ham yozma shakllari mavjud. Radio-televizioniye uslubi publitsistik uslubning og'zaki shakliga, gazeta, jurnal uslubi esa yozma shakliga xosdir. Ayni paytda respublikamizda 696 ta gazeta, 260 ta jurnal, 4 ta axborot agentligi, 65 ta telestudiya, 36 ta radiostansiya faoliyat ko'rsatmoqda.

Publitsistik uslub jamiyat faol a'zosining ijtimoiy-siyosiy hayotga bo'lgan munosabatini ifodalaydi.

Har qanday jamiyatning u yoki bu faol a'zosi o'zi yashab turgan jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va ijtimoiy-ma'daniy hayotiga befarq qaramaydi, ularga o'z munosabatini bildiradi. Bu munosabat til vositalari, ularning imkoniyatlari asosida o'z ifodasini topadi. Ana shunday munosabatini ifodalashni ta'minlash uchun xizmat qiladigan nutq ko'rinishlari publitsistik nutq hisoblanadi.

Publitsistika so'zi lotincha bo'lib—ijtimoiy yoki xalq, ijtimoiy xalqchil degan ma'nolarni bildirgan. Publitsistik uslub ko'rinishlari ijtimoiy taraqqiyotning eng qadimgi davrlaridayoq paydo bo'la boshlaganligini, bu ko'rinishlar qadimgi notiqalar nutqlarida namoyon bo'lganligini olimlar ta'kidlaganlar.

Matbuot nutqi odatda, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy-axloqiy, adabiy-tanqidiy mavzulardagi ommaviy nashrlarda, ijtimoiy-siyosiy jurnallarda, barcha gazetalarda, notiqalarning nutqlarida, radio va televizioniye chiqishlarida namoyon bo'ladi. Boshqacha aytganda, ana shularning nutqi matbuot nutqi sifatida tan olinadi. Gazeta nutqi matbuot nutqining hozirgi kundagi eng asosiy ko'rinishidir. Chunki gazeta nutqida ommaga murojaat qilish, undash, qiziqtirish, rag'batlantirish, uyushtirish – umuman olganda, ta'sir etish yetakchi o'rinda turadi.

Ommaning faolligini oshirishda u nihoyatda tezkordir. Bunga sabab uning ommaviyligi, tez yetib borishi, tushunarligi, aniq- lo'ndaligi, hayot bilan hamnafasligidir.

Publitsistik asarlarning (masalan, xabar, reportaj, korrespondensiya, maqola, ocherk, feleton, pamflet, bosh maqola va boshqalarning) uslubiy chegaralanishi ularning, eng avvalo, alohida lisoniy belgilarga ega ekanligida ko'rinadi. Ana shu lisoniy belgilar o'zbek tilining publitsistik asarlarda amal qilishida ma'lum ma'noda yopiq sistema mavjud ekanligiga dalildir. Bu yopiq sistema, ya'ni chegaralanish publitsistik asarlar tilining uslubiy o'ziga xosligi bo'lib, o'zbek tili vazifaviy uslublari doirasida publitsistik uslub nomi bilan yuritilishiga imkon beradi.

Xo'sh, til birliklarini qo'llashda o'ziga xos sistemani tashkil etuvchi publitsistik uslub qanday alohida lisoniy belgilarga ega va uning boshqa vazifaviy uslublarga aloqadorligi nimada?

Eng avvalo, bu uslubning boshqa vazifaviy uslublarga aloqadorligini ko'rib o'taylik. U til birliklarining obrazlilikni, emotsional-ekspressivlikni yuzaga keltirishga xizmat qilishiga ko'ra badiiy nutq uslubiga; ifodaning lo'nda va aniqligi hamda atamalarning faol qo'llanilishi bilan esa ilmiy uslubga yaqin turadi. Ijtimoiy-siyosiy masalalarni ko'tarib chiqishi, tahlil usuli, mantiqiy davomlilik, kitobxonni ishontirish kuchi, ijtimoiy masalalarni hal etishga undashning kuchlilik, o'ziga xos atamalarning qo'llanishi singari xususiyatlar publitsistik va ilmiy uslubning o'xshash tomonlaridir.

So'z va atama siyosiy ma'nosining badiiy uslub unsurlari bilan qorishgan, uyg'unlashgan holda ifodalanishi publitsistik nutqni yanada kuchaytiradi va uning ta'sirchanligini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, publitsistik uslub boshqa uslublardan jiddiy farqlarga ham egaki, bu farqlar uning o'ziga xos lisoniy belgilaridir. Adabiy tilimizning boyishida publitsistik uslubning roli katta. Chunki ijtimoiy-siyosiy hayotimizda ro'y beradigan voqea-hodisalar, odatda, birinchi navbatda publitsistik asarlarda o'z aksini topadi.

O'zLiDeP Siyosiy Kengashi ijroiya qo'mitasi va Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi partiya fraksiyasi a'zolari, bank-moliya, soliq va bojxona tashkilotlari vakillari, tadbirkor hamda fermerlar ishtirok etgan tadbirlarda asosiy e'tibor kichik biznes va xususiy mulkchilik subektlari faoliyatini tartibga soluvchi qonunlarni tahlil qilish, ularni yanada takomillashtirish bo'yicha zarur tavsiyalarni ishlab chiqish, shuningdek, Konsepsiyada o'rta qo'yilgan dasturiy masalalar yuzasidan aniq vazifalarni belgilab olishga qaratildi. (Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik – taraqqiyot kafolati «XXI asr» gazetasi, 2011-yil, 28-aprel, 389-soni).

Publitsistik uslub ijtimoiy-siyosiy bilimlarni targ'ib qilish va keng xalq ommasiga yetkazuvchi vosita sifatida bu uslub tilining rang-barangligi orqali kishilar ongiga ko'proq ta'sir etadi.

Bu uslubning yana bir xususiyati shundaki, unda qisqalik (lakonizm) markaziy o'rinlardan birini egallaydi, ya'ni qisqa, lo'nda, tushunarli, yorqin, ixcham tilda yozish asosiy talablardan hisoblanadi.

Publitsistik uslubda gazeta tili alohida o'rin egallaydi. Chunki gazeta va publitsistika bir-biri bilan chambarchas bog'liq. Shu bilan birga, gazeta uslubi publitsistik uslubning bir tarmog'i hisoblanadi.

Gazeta ijtimoiy hayotning turli-tuman sohalarini to'la qamrab oladi. Ikkinchidan esa, uning sahifalarida xabardan tortib (maqola, reportaj, ocherk, bosh maqola, e'lon...) badiiy asarlardan parchalargacha beriladiki, bu ommaning barcha tabaqalariga ta'sir etishning, barchasiga tegishlilikni, tushunarlilikni ta'minlaydi.

Publitsistik uslub ijtimoiy-siyosiy atamalarni o'zida mujassam etishi (xabar, ma'ruzalar, turli chiqishlar, raportlar, tabriknomalar, qarorlar, hukumat notalari) bilan rasmiy ish-qog'ozlari uslubiga yaqinlashgandek bo'ladi. Rasmiy-ish qog'ozlari uslubiga xos so'z va atamalar publitsistik uslubda ham uchrab turadi, ba'zilar esa faol qo'llanishi ham mumkin.

2.2. Siyosiy matbuot va uning til xususiyatlari.

Yurtimizda demokratik jarayonlarni chuqurlashtirish sharoitida fuqarolarni ayni shu jarayonlarning faol ishtirokchisi va himoyachisiga aylantirish, bu mas'uliyatli vazifani ado etib borib, hur so'z, ozod fikr, erkin xatti-harakat orqali jamiyat erkinligi va farovonligini shakllantirish respublikamizda olib borilayotgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy islohotlarining pirovard maqsadidir. Vatanimiz taraqqiyoti, islohotlarning muvaffaqiyati ko'p jihatdan xaqning siyosiy bilimi, madaniyati darajasiga bog'liq bo'lib, shaxsning siyosiy faolligi, uning chinakam fuqaroviy munosabati, demokratik islohotlarga intiluvchanligi belgilangan maqsadlarga erishishning muhim omili hisoblanadi. Binobarin, davlat, jamiyat, o'z fuqarolarining siyosiy bilimlarini va siyosiy savodxonligini oshirib borishdan mafaatdor bo'lib, ularning siyosiy savodxonligini yuksaltirishga, huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga mas'uldir.

Ana shu ijtimoiy zaruratni hisobga olib, respublikamizda mustaqillikning dastlabki yillaridanoq ommaviy axborot vositalarida siyosiy yo'nalishdagi masalalarni yoritishga jiddiy e'tibor berildi. Ana shu ijtimoiy zaruratni hisobga olib, respublikamizda mustaqillikning dastlabki yillaridanoq ommaviy axborot vositalarida siyosiy yo'nalishdagi masalalarni yoritishga jiddiy e'tibor berildi. Gazeta-jurnallarda fuqarolar siyosiy ongi va siyosiy madaniyatini oshirishga bag'ishlangan maqola, tadqiqotlar e'lon qilish amaliyotga kiritildi. Matbuot maydonida ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy-falsafiy, ijtimoiy-publitsistik, adabiy-badiiy, ma'naviy-ma'rifiy, ommaviy nashrlar bilan bir qatorda ijtimoiy-siyosiy, siyosiy nashrlar paydo bo'ldi. Hozirgi vaqtda respublikamiz miqyosida mazkur yo'nalishda o'nlab gazeta va jurnallar chop etilmoqda. Bugungi kunda respublikamiz axborot tizimida faoliyat yuritayotgan O'zbekiston liberal demokratik partiyasining «XXI asr», xalq demokratik partiyasining «Xalq so'zi», milliy tiklanish partiyasining «Milliy tiklanish», adolat sotsial demokratik partiyasining «Adolat» kabi gazetalari mavqei, o'z o'rniga egaligini ta'kidlash mumkin.

Binobarin, «siyosiy matbuot» – mazkur ishda ilk bor qo'llanayotgan atamalardan biri bo'lib, tilshunoslik va bu sohada yaratilgan lug'at, darslik, qo'llanma va boshqa adabiyotlarda shu paytga qadar qo'llanilmagan. Umuman, siyosiy matbuot- ijtimoiy-siyosiy, siyosiy yo'nalishda chop etilayotgan gazeta-jurnallar va ular faoliyatini umumlashtiruvchi yangi so'z birikmasi bo'lib, bugungi kunda mazkur yo'nalishdagi matbuotning respublikamiz OAV orasida tutgan o'rni katta ekanligi yuqorida eslatildi. Buning o'ziga xos sabablari bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

1. Demokratlashtirish va erkin fuqarolik jamiyati barpo etishning siyosiy asoslarini yaratish jarayonida shunday vaziyat yuzaga keldiki, ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy-falsafiy, ilmiy-ma'rifiy, ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishlarda chop etilayotgan nashrlar sahifalaridagi siyosiy mavzularda berilayotgan materiallar fuqarolarni qoniqtirmay qoldi, ya'ni siyosat sohasidagi yangilik va izlanishlar, siyosiy muammolar, siyosiy terminologiya masalalari hamda siyosat fanidagi o'zgarishlar to'g'risida keng ma'lumot beruvchi nashrlarga ehtiyoj tug'ildi.
2. Jamiyatdagi islohotlar vujudga keltirgan ana shu ijtimoiy-siyosiy, tibbiy- ma'rifiy ehtiyoj natijasida mazkur soha masalalarini talab darajasida yoritishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan gazeta - jurnallarni chop etish yo'lga qo'yila boshlandi va ular haqli ravishda «siyosiy gazeta», «siyosiy jurnal», «siyosiy nashr» deb atala boshlandi.

Tabiiyki, ushbu nashrlar faoliyatida yildan-yilga sifat o'zgarishlari yaqqolroq ko'zga tashlanmoqda va bu jarayonda ularning tili uslubiyatida sodir bo'layotgan o'zgarishlarni alohida tadqiqot ob'ekti sifatida o'rganishga bo'lgan ehtiyoj ortib bormoqda. Modomiki, matbuot yozma nutq an'alarini davom ettiruvchi, shuningdek, og'zaki nutq xususiyatlarini o'ziga singdiruvchi vosita ekan, o'z navbatida, matbuot ham og'zaki va yozma nutq madaniyatining yuksalishida, yozma nutqqa xos bo'lgan tartib va izchillikning takomillashuvida muhim rol o'ynaydi – «jamiyat sanitari» vazifasini o'taydi. Siyosat matbuotning bugungi asosiy vazifasi– huquqiy davlat va erkin fuqarolik jamiyati barpo etishda

jamiyat va hokimiyat o'rtasida ko'prik rolini bajarib, siyosiy savodxonlikni oshirish, qonunchilik me'yorlarini ro'yobga chiqarish, islohotlarning borishi va inson huquqlariga rioya etilishi ustidan nazorat qilishning ta'sirchan vositasi bo'lmoqdir. Shunday ekan, siyosiy matbuot tili va uslubi har jihatdan namunaviy tarzda bo'lishi, siyosat haqidagi nashrlar tilining ko'pchilikka tushunarli bo'lishi, qisqasi, siyosiy hijjatlar mazmuni bilan tanishishning oson va qulay bo'lishi – ko'zlangan maqsadni yanada tezlashtiradi. Biroq har qanday rivojlanishda bo'lgani kabi, siyosiy matbuot tili va uslubida ijobiy o'zgarishlar bilan birga ayrim kamchiliklar, nuqsonlar ham uchrab turadiki, ularni bartaraf etmoq har jihatdan foydalidir. Negaki, o'z vaqtida tuzatilgan nuqson keyin yuzaga keladigan juda ko'p chalkashliklarning oldini oladi, noto'g'ri hukm va xulosaga o'rin qoldirmaydi, ijro madaniyatiga samarali ta'sir etadi.

Shu maqsaddan kelib chiqib, siyosiy matbuotdagi faol nashrlardan biri-«XXI asr» gazetasining 2010-2011 yillaridagi sonlari bilan tanishib chiqilganda, bu nashrning avvalo respublikamizdagi ko'pgina gazetalar uchun yetakchi, tashabbuskor rolini o'taganini, shu bilan birga, gazeta tili yildan-yilga takomillashib, o'sib-o'zgarib borganini kuzatildi. Bizningcha, bunday ijobiy o'sish - o'zgarish, avvalo, gazeta sahifalarida qo'llangan ruknlarda namoyon bo'ladi.

Ma'lumki, rukn–e'lon qilinayotgan materialning peshtoqi, devizi, «shiori» bo'lib, matn g'oyasi va muallif fikrining nimaga qaratilganligiga ishora qiladi. «U nima haqda gap borayotganini anglatadi, o'sha materialning mazmuni, mohiyatidan darak beradi. Mana shu xususiyati bilan rubrika (ya'ni rukn – SH. R.) gazetxonga ancha yengillik, qulaylik tug'diradi».¹

Rukn va sarlavha tashqi ko'rinishidan bir-biriga o'xshashdek ko'rinsa ham, lekin ular bir-biridan o'ziga xos xususiyatlariga ko'ra farqlanadi. Masalan, sarlavha har bir maqola uchun alohida qo'yilsa, ruknda bu jihatdan turg'unlik seziladi, yani ruknlar takrorlanishi yoki nashrdan nashrga ko'chib o'tishi mumkin. Masalan: «Tahlil», «Bashorat», «Uchrashuv», «Voqealar, sharhlar, dalillar», «So'rang, javob beramiz», «Mardlar qo'riqlaydi Vatanni», «Muqaddas burch», «Sarhisob»,

¹ Бобоева А. Газета тили ҳақида. - Т.: Фан, 1983, 31-б.

«Tilloga teng satrlar», «Deputatlik guruhlarida» va boshqalar. Biroq sarlavhaga xos bo'lgan uch funksional vazif–maqolani nomlash, maqolaning mazmunini bildirish va reklamalilik xususiyatlari ma'lum darajada rukn uchun ham xosdir. Ayniqsa, maqola mazmuniga xos markaziy g'oyani bo'rttirib ko'rsatish va reklamalilik ruknni ham xarakterlovchi belgilardandir. Agar sarlavha maqolani atash, mazmunni ifoda qilish va ma'lum darajada o'quvchini qiziqtirishga xizmat qilsa, ruknda o'quvchi e'tiborini mohiyatga yo'naltirish, diqqatini asosiy masalaga qaratish ustuvorlik qiladi.

Tadqiqotchi A.Boboyeva ruknlarni doimiy, mavsumiy, ma'lum sohaga moslangan bo'lishi mumkinligiga ko'ra uch turga bo'lib o'rganishni taklif etadi.¹ Siyosiy matbuotdagi ruknlarni shu tarzda o'rganilsa, qo'llanilayotgan ruknlarning axborotlar ichidagi o'rni va bajarayotgan vazifasi yanada yaqqol ko'rinadi. Masalan: siyosiy nashrlardagi ruknlarning ko'pchiligi siyosiy soha atamalari asosida shakllangan bo'lib, qaysi sohaga tegishli ekani izohsiz ham anglashilib turadi: «Siyosiy madaniyat», «To'rtinchi hokimiyat», «Ob-havo», «Sport». Lekin ular bilan yonma-yon shunday ruknlar ishlatiladiki, siyosiy sohaga moslangani uchun siyosiy ma'no kasb etadi: «Inson va huquq», «Partiya tashkilotlarida», «Deputatlik guruhlarida», «Tadbirkorlik–prokuratura himoyasida», «Viloyat kengashida», «Qonun va ijro», «Konsepsiya g'oyalari amalda», «Voqealar, sharhlar, dalillar»... kabi.

Siyosiy nashrlarda yilning biror-bir faslida bo'lmasa-da, ma'lum bir vaqtda bajariladigan ish yoki tadbirlar munosabati bilan qo'llanadigan mavsumiy ruknlar ham uchrab turadi: «14-yanvar– Vatan himoyachilari kuni», «2010-yil –Barkamol avlod yili », «2011-yil–Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili», «Anjuman» kabi.

Siyosiy matbuotda, xususan «XXI asr » gazetasining 2010-2011 yillarga oid sonlarida qo'llangan runklarni uning mundarijasini belgilash nuqtai nazaridan shartli ravishda quyidagi guruhlariga bo'lish mumkin:

¹ Qarang: Shu joyda.

Siyosat bilan bevosita bog'liq bo'lgan mavzudagi ruknlar	Siyosat bilan bevosita bog'liq bo'lmagan mavzudagi ruknlar	Sahifalarga qo'yiladigan katta ruknlar
Konsepsiya o'qib o'rganilmoqda. Deputatlik guruhlarida. Siyosiy madaniyat. Hisobot- saylov yig'ilishi. Xususiy sektor- farovonlik omili. Senat vakolatlari kengaytirilmoqda. Yangi qonunga takliflar. Konsepsiya g'oyalari amalda.	Tibbiyot. Bojxona xabarlar. Tahlil. Muharir minbari. Uchrashuv. Yangilik. Aks-sado. E'lon. Asosiy e'tibor. Transport. Biznes-bashorat. Futbol.	Nuqtai nazar. Jarayon. Moliya. Davra suhbat. Prezident qarori. Siyosiy klub. Bunyodkorlik. Qutlov. Siyosat. E'lon. Tashabbus-2011. Konsepsiya.

Bunday guruhlash siyosiy nashr mundarijasi haqida to'liq ma'lumot berolmasa ham, lekin matbuot sahifalarida yoritilayotgan maqolalar va ularda ko'tarilayotgan muammolar ko'lami, ularning qanday maqsadlar sari yo'naltirilgani to'g'risida ma'lum tasavvur hosil qiladi.

Rukn va sarlahalarni muvaffaqiyatli qo'llash fuqarolar siyosiy savodxonligini shakllantirishda katta ahamiyatga egadir. Binobarin, rukn, sarlavha kabi g'oyat muhim ma'no ifodalovchi til birliklarini to'g'ri yozish zarurgina emas, shart hamdir. Shu jihatdan, siyosiy matbuotda bir qator ijobiy xususiyatlar bilan birga, ayrim nuqsonlar ham uchrab turadi. Masalan:

1. «Mahalla oilaviy tadbirkorlik ostonasidir» (to'g'risi: «Mahalla–oilaviy tadbirkorlik ostonasidir»)– «XXI asr», 2011-yil 28-aprel.

2. «Mahalliy xom ashyo negizida» (to'g'risi: «Mahalliy xom-ashyo negizida» – «XXI asr», 2009-yil 15-yanvar.

3. «12 mln.dan oshdi» – (to'g'risi: «O'n ikki milliondan oshdi») – «XXI asr», 2009-yil 15-yanvar.

4. «Andijonda bolalarga bepul transport xizmati ko'rsatilayapti»–(to'g'risi: «Andijonda bolalarga bepul transport xizmati ko'rsatilyapti »)– «XXI asr», 2011-yil 28-aprel.

5. «Til bilgan el bilar» – (to'g'risi: «Til bilgan – el bilar) – «XXI asr», 2010-yil 5- avgust.

Holbuki, matbuot tili va atamachilikdagi xatolarga nisbatan qanday talabchanlik bilan yondashilsa, siyosat haqidagi maqolalarga, shuningdek, ularning rukn va sarlavhalarining to'g'ri yozilishiga nisbatan bundan ham xushyorlik zarur. Buni yaxshi tushunib yetgan ayrim nashrlarda keyingi yillarda siyosiy matbuotda so'z va terminlarni to'g'ri qo'llash yuzasidan baxs, munozaralar bo'lib o'tdi.

Siyosiy matbuot tili va uslubiy xususiyatlarini tadqiq etish muammolari soha mutaxassislarinigina emas, balki siyosatchilarni ham o'ylantirayotgani, umuman, keyingi paytda matbuot va huquq munosabatlari chuqurroq tahlil etishga, ularni bir-biriga o'zaro ta'sirini tadqiq etishga bag'ishlangan maqola va suhbatlar mavjud siyosiy nashrlarda ko'proq e'lon qilinayotganini kuzatish mumkin.

Bu suhbat va maqolalarning e'lon qilinishi siyosiy matbuot tilida uchrab turadigan ayrim imloviy, uslubiy, mantiqiy g'alizliklarning o'z vaqtida bartaraf etilishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda, gazeta-jurnallarda siyosiy masalalarning til nuqtai nazaridan to'g'ri va ta'sirchan yoritilishiga amaliy yordam bermogda.

2.3. Mustaqillik va siyosiy atamalar

O'zbekiston huquqiy davlat va erkin fuqarolik jamiyati barpo etish yo'lini tanlab olingach, fuqarolarning siyosiy saviyasi, ijtimoiy faolligi va huquqiy savodxonligi hamda madaniyatini yuksaltirish davrning qat'iy talabiga aylandi. Qisqa davr ichida aholining siyosiy va ijtimoy- siyosiy bilimini oshirishga yordam beruvchi siyosiy matbuot shakllandi. Binobarin, istiqlol davrida siyosiy nashr sahifalari orqali davlat siyosiy ibora va atamalar, demokratik institutlar hamda qadriyatlar kirib kelib, fuqarolarning siyosiy voqelik va tushunchalar haqidagi bilim va tasavvurlarining kengayishiga ta'sir etdi.

Izlanishlardan ma'lum bo'ladiki, zamonaviy siyosiy terminologiya muntazam o'zgarib, boyib borayotgan soha bo'lib, uning hisobiga tilimiz lug'at tarkibi yildan-yilga yangi so'z va iboralar bilan boyib bormoqda, siyosatshunosligimiz va amaliy faoliyatimiz doirasiga ilgari qo'llanilmagan yangi iboralar, siyosiy tushunchalar kirib kelmoqda. Shu jumladan, «XXI asr» gazetasining barcha sonlarida berib borilayotgan matnlarda bunday yangilanishlarni kuzatishimiz mumkin. Bunga misol tariqasida quyidagi matnlarda siyosiy atamalarning qo'llanilishini ko'rib chiqaylik:

1. *«Parlament faoliyati Konsepsiya talablariga moslashtirilmoqda» (Q. Saydaliyev, 20.01.2011)* maqolasida qo'llanilgan siyosiy atamalar: qo'shma majlis, qonunchilik palatasi, vazirlik, liberallashtirish, sud, qonun chiqaruvchi hokimiyat, ijro etuvchi hokimiyat, abolitsiya, quyi palata, huquqiy hujjat, parlament va b.qlar.

2. *«To'rtinchi hokimiyat: demokratik jamiyatning tamal toshi» (A. Abdullayev 03.02.2011).* Siyosiy atamalar miqdori: respublika, integratsiya, sektor, agentlik, assotsatsiya, fuqarolik jamiyati, hukumat, Favqulodda va Muxtor elchi, jamiyat, «to'rtinchi hokimiyat», adliya, agentura, adminstratsiya, Interpol kabi.

3. *«Davr bilan hamohang» (M. Usmonov, 10.03. 2011.).* Siyosiy atamalar: demokratik yangilanish, Oliy Majlis, majlis, Bosh vazir, hokimiyat, deputat, partiya, senat, platforma, mahalliy kengash, prezident, vakillik organlari,

4. «Davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirishda O'z LiDeP ning ustuvor vazifalari» (M. Teshaboyev, 17.03.2011) maqolasida qo'llangan siyosiy atamalar: siyosiy kengash, ko'ppartiyaviylik, demokratik prinsiplar, saylov, ijroiya qo'mita, fraksiya, quyi palata, yuqori palata, mahalliy hokimiyat, konsepsiya, saylovoldi dastur.

5. «Qonun takomillashtirilishi kerak» (O. Rajabov, 31.03.2011) maqolasidagi siyosiy atamalar: jamiyat, kontrafakt, tartibot, idora, musodara, intizom, o'zini -o'zi boshqarish organlari, emansipatsiya, qo'mita, viloyat, diplomatik aloqa, kongress, farmon, da'vatnoma, buyruq, delegatsiya, bojxona, moliya qo'mitasi va shu kabi siyosatga oid terminlardan foydalanilgan. Bu atamalarning o'zbek tilining izohli lug'atida qanday ma'noda izohlanganini ko'rib o'taylik:

Abolitsiya – (lot. abolitio- bekor qilish) qonun yoki qarorni bekor qilinishi.

Agentlik – II. biror idora, muassasa yoki korxonaning joylardagi bo'limi. shuningdek, axborot yig'ish va tarqatish, vositalik qilish vazifasidagi ba'zi mussasalar nomi.

Adminstratsiya – (lot. administratio boshqaruv; rahbariyat) q. ma'muriyat 1. 2. Muassasa, korxona, tashkilot rahbarlari majmui.

Integratsiya – (lot. integratio- tiklash, qaytadan boshlash, to'ldirish) ikki va undan ortiq davlatlarning iqtisodiyotini o'zaro muvofiqlashtirish va birlashtirish. Konstitutsiya – (lot. constitutio- belgilash, qaror qilish, tayinlash, qonunlashtirish) davlatning yuksak yuridik kuchga ega bo'lgan asosiy qonuni; barcha joriy qonunlarning asosi.

Delegatsiya – (lot. delegatio- yuborish, tayinlash) biror tashkilot yoki davlat tomonidan belgilangan, yuborilgan vakillar guruhi.

Da'vatnoma – biror ish-harakatga yoki biror g'oyaviy- ma'naviy maslakka va sh.k ga da'vat etuvchi, undovchi xat, varaqa.

Deputat – (lot. deputats- vakil qilingan, yuborilgan) vakolatli davlat organiga saylangan kishi vakil. Jamoa (guruh), bajarish uchun vakil qilingan shaxs.

Musodara – a. mol-mulkni majburiy ravishda davlat ixtiyoriga o'tkazish; tortib olish.

Shulardan kelib chiqib, aytish mumkinki, sohaviy terminologiya muammolarini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqot ishlariga keng yo'l ochildi, binobarin, siyosiy terminlar ham tadqiqotchilar diqqat markazidagi muhim masalaga aylandi. Jumladan, H. Dadaboyev, Z. Xolmonova, A. O'razboyev, A. Abdullayevlar bu sohada bir qator izlanishlar olib bordilar va izlanmoqdalar.

Mazkur tadqiqotlarda siyosat tili va uslubi, siyosat sohasida qo'llanilayotgan terminlar tarixiy va zamonaviy nuqtai nazardan atroflicha tadqiq etilgan bo'lishiga qaramay, bu sohada hali o'zining to'liq yechimini topa olmayotgan muammolar ham yo'q emas. Jumladan, siyosiy terminlarning OAV va siyosiy matbuotda qo'llanishdagi o'ziga xosligi, terminlararo ma'noviy xususiyatlar turlarini aniqlash, siyosiy terminlarning ichki va tashqi imkoniyatlari boyib borish yo'llarini ta'kidlash lozim.

Binobarin, siyosiy soha, siyosat rivojlangani sari siyosiy til ham shunga muvofiq holda rivoj topa boradi. O'z navbatida siyosiy atamalar ham takomillashib, siyosiy ong va siyosiy savodxonlikning yuksalishiga muayyan zamin hozirlaydi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, mustaqillikdan so'ng siyosiy atamalarni qo'llash yoki iste'molga kiritishda, birinchidan, umumbashariy ahamiyatga ega bo'lgan va jahon siyosati taraqqiyoti durdonalari hisoblangan sara atama so'zlarni amaliyotga ko'proq kiritishga katta ahamiyat qaratildi. Bunday atamalar umuminsoniy qadriyatlar jumlasiga kirib, barcha millat va elatlarning o'zaro yaqinlashuvi, ya'ni integratsiya jarayonining rivojlanishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Chunonchi, bunday atamalar jumlasiga parlament, spiker, fraksiya, senat, senator, quyi va yuqori palata singari so'zlarni kiritish mumkin.

Ikkinchidan, siyosiy matbuot sahifalarida siyosiy atamalarni izohlash, tushuntirishga ko'maklashuvchi maxsus rukn (oynaso'z) va sarlavhalar qo'llash, ular ostida esa izohli lug'atlardan muntazam ravishda parchalar e'lon qilish amaliyotga kiritildi.

2.4. Ommabop nashrlarda siyosiy atamalar bilan bog'liq norma muammolari

Har bir janrning o'z tovushi, o'z so'zi, o'ziga xos grammatikasi mavjud bo'lib, tahlil va tadqiq jarayonida bu doimo diqqat markazida bo'lmog'i lozim. Shuning uchun ham siyosiy matbuot matnida adabiy normaga amal qilish muammolari haqida so'z yuritishdan oldin uning yetakchi janrlari va ularni adabiy norma nuqtai nazaridan tadqiq etishning zarurligi xususida to'xtalib o'tishga to'g'ri keladi.

Avvalo shuni ta'kidlash joizki, «janr» haqida gap ketganda, asosan, badiiy asar nazarda tutilar edi. Buni «O'zbek tilining izohli lug'ati» dagi quyidagi izohdan ham bilish mumkin: «Janr(r-f). San'at asarlarining syujet va uslub jihatidan xususiyatlarga ega bo'lgan har bir turi. Lirika janri. Hajv janri. Qo'shiq janri»¹.

O'tgan asrning 60-70-yillaridan boshlab rus va o'zbek tilshunoslarining matbuot janrlari haqidagi bir qator tadqiqotlari yuzaga keldi.² O'zbekiston jurnalistlar uyushmasining nashri—«Muxbir» jurnalida publitsistik janrlarga oid turkum maqolalar e'lon qilindi³.

«Gazeta janrlarining til xususiyatlari» mavzusida doktorlik dissertatsiyasini himoya qilgan A. Abdusaidov matbuot janrlari haqida o'zigacha olib borilgan tadqiqotlarni chuqur va atroflicha o'rganib chiqib, uni quyidagicha tasniflash mumkin degan xulosaga keladi:

I. Axborot (information) janrlari: xabar, reportaj, hisobot, intervyu.

II. Tahliliy (analitik) janrlar: korrespondensiya, maqola, taqriz, sharh, obzor, xat, kuzatish.

¹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. - Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 1- 2-том, 2006, Б.72.

² Qarag: Проблемы газетных жанров. Сб. Статей.- Л.: Изд-во ЛГУ, 1962; Жанры советской газеты,- М., 1972; Блажов Е. А. Газетные жанры в экономической пропаганде. – М.1974; Кройчик Л. Современный газетный фелетон. Воронеж , 1975; Тоғаев О. Публицистика жанрлари. – Тошкент: Ўқитувчи,1976.

³ Qarag: Asosiy janrlardan biri//Muxbir, 9-son, -B. 33-34; Bir songa ellik satr. Gazeta janrlari haqida suxbat// Muxbir, 1973, 1-son,- B.30-32; Intervyuning katta oilasi// Muxbir, 1973, 3-son,-B.30-31; maqola. Janr haqida suxbat// Muxbir, 1975, 9-son,- B. 32-33; Maqola ustida qanday ishlash kerak? //Muxbir, 1975, 11-son,-B. 34; Umirov S. Janr mas'uliyati// Muxbir, 1975, 5-son,-B. 34; Gazetada obzor// Muxbir, 1975, 12-son,-B.36-37; Baxodirov S. Ob'ekt gazetalarida очерк// Muxbir, 1976, 8-son, -B.14-16; Viktorov V. Faroyib va ogir janr// Muxbir, 1977, 4-son, -B. 39.

III. Badiiy-publitsistik janrlar: lavha, ocherk, feleton.»¹

Siyosiy matbuotda xabar, reportaj, hisobot, intervyu janrlari hayotimizdagi siyosiy munosabatlarni atroflicha tasvirlashda katta ahamiyatga ega. Aniqlik, ixchamlik, neytrallik ularning barchasi uchun xos xususiyatlardir.

Tilshunoslikning eng murakkab nazariy masalalaridan biri bo'lgan adabiy norma va gazeta tilida unga rioya etish muammolari bo'yicha o'zbek tilshunosligida bir qator fundamental ishlar amalga oshirilgan.²

Matbuot tilini adabiy norma talablari nuqtai nazaridan tadqiq etishga doir ishlar o'tgan asrning 70-yillarida yuzaga kela boshlagan. Ularning aksariyati o'sha yillarda «Muxbir» jurnalida chop etilgan. Biroq ularda siyosiy matbuot tili tadqiqot obekti bo'lmaganligi uchun biz bu haqda ayrim kuzatishlar olib bordik. Bitiruv-malakaviy ishimizning keyingi paragraflarida shu haqdagi fikrlarimiz bayon qilinadi.

«Adabiy tilda milliy tilning yashash va amal qilish qonuniyatlaridan kelib chiqib so'z tanlash imkoniyatlari uning leksik normasini belgilaydi. Umumxalq tilidan o'sib chiqqan adabiy til unda mavjud bo'lgan so'z variantlaridan leksik norma sifatida eng ma'qulini – hamma uchun tushunarli bo'lgan ko'rinishini tanlab oladi, qolgan variantlar esa sheva va dialektlarda, sotsial guruhlar tilida yashayveradi».³

O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganidan keyin leksik norma muammosiga bo'lgan e'tibor, ayniqsa, har qachongidan ham ortdi. 1989-1990-yillar matbuotiga nazar tashlansa, yillar davomida erkin fikr bildirish, o'z ona tilida bermalol so'zlash va ona tiliga mansub so'zlarni bermalol aytish va yozish imkoniyati chegaralanib kelgan millatning ozod fikrlarini o'qish mumkin. Ayniqsa, bu yillarda turli sohalar bo'yicha atamashunoslikda ham jiddiy yangilanishlar ro'y

¹ Абдусaidов А. Газета жанрларининг тил хусусиятлари. Филол. фан. докт. автореф. - Тошкент, 2005, -В.11

² Qarang: Бегматов Э., Бобоева А., Асомиддинова М. Адабий норма ва нутқ маданияти. - Т.: Фан, 1983; Махкамов Н. Адабий норма ва плеоназм. - Т.: Фан, 1988; Қўнғуров Р., Бегматов Э., Тожиёв Ё. Нутқ маданияти ва услубият асослари. - Т.: Ўқитувчи, 1992; Қўнғуров Р., Каримов С., Қурбонов Т. Нутқ маданияти асослари. - Самарқанд, 1-қисм, 1985; 2-қисм 1986; 3-қисм 1987. Бегматов Э., Маматов А. Адабий норма назарияси. - Т., 1-қисм 1997, 2-қисм 1998, 3-қисм 1999; Каримов С. Тил таълими ва меъёр. - Т.: А.Қодирий халқ мероси нашриёти, 2002.

³ Қўнғуров Р., Каримов С., Қурбонов Т. Нутқ маданияти асослари. - Самарқанд, 1985, 40-б.

berdi, olimlarning aynan shu sohaga bag'ishlangan bir qator maqolalari matbuotda tez-tez chop etildi.

Siyosiy matbuot matnida leksik norma muammolari haqida so'z ketar ekan, unga tizim jihatdan e'tibor qaratishga to'g'ri keladi, chunki keyingi yillarda g'arb va rus tilshunosligida bo'lgani kabi o'zbek tilshunosligida ham tizimli tadqiqotlarga jiddiy e'tibor berila boshlandi. Bu tadqiqotlarning o'ziga xos xususiyatlari shundaki, lingvistik faktlarga avtonom holda yondashmay, har qanday hodisa ostida yashirinib yotgan mohiyatning ochilishiga e'tibor beriladi. Tadqiqotchi diqqati ko'proq lingvistik hodisalar o'rtasidagi munosabatni yoritishga qaratiladi.

«Maydon» atamasi qator fanlar doirasida mavjud bo'lib, lingvistikada «ma'no» (mazmun) umumiyliги bilan birlashgan va belgilanayotgan hodisalarning tushunchaviy, predmetlik yoki vazifaviy (funktional) o'xshashligini aks ettiruvchi til birliklari (asosan leksik birliklar) yig'indisi maydon sifatida belgilanadi.¹

O'zbek tilshunosligida ham maydon talqini bilan bog'liq bir qator izlanishlar olib borilmoqda².

Yuqoridagi tadqiqotlarda belgilab olingan obektlarning struktur xususiyatlari yetarlicha tahlil etilgan. Bu sohada anchadan beri tadqiqot olib borayotgan professor SH. Iskandarova «Til sistemasiga maydon asosida yondashuv» nomli monografiyasida o'zbek tilidagi til birliklari misolida personallik (shaxs), temporallik (zamon), lokallik (makon), shart va to'siqsizlik singari mikro-maydonlarning ayrim belgilari to'g'risida o'z qarashlarini bayon etgan³.

Ko'rsatib o'tilgan monografik tadqiqotlarga tayangan holda biz siyosiy matbuotda qo'llangan matnlardagi til birliklarini maydon nuqtai nazaridan shartli ravishda quyidagi mikromaydonlarga ajratdik:

¹ Лингвистический энциклопедический словарь – М.:СЭБ1990—с .380.

² Qarag: Собиров А. Ўзбек тилининг лексик сатҳини системалар системаси тамойили асосида таҳлил этиш - Т.:2004; Мирзақулов Т. Морфем парадигматикаси ва синтагматикаси масалалари: Филол. фан. докт. дисс. фвтореф. -Т., 1994.

³ Искандарова Ш. Тил системасига майдон асосида ёндашув. -Т.: Фан, 2007 йил, 100-136-б.

1. Siyosiy atamalar mikromaydoni: quyi, yuqori palata, parlament, oliy majlis, modernizatsiya, siyosiy partiyalar, fraksiya, liberalizatsiya, konstitutsiya, farmoyish, qaror, dastur, platforma, dasturilamal.
2. Faoliyat mikromaydoni: qatnashmoq, ishtirok etmoq, nutq so'zlam, ovoz bermoq, faoliyat olib bormoq, ta'minlamoq, faollikni oshirmoq, qo'shimcha kiritmoq, baxtiyorman, zimmasiga yuklatilsin, unutmasligimiz lozim, qo'llab-quvvatlam.
3. Xabar mikromaydoni: xabar, axborot, luqma, tadbir, aks-sado, afsus, nuqtai nazar, shoshilinchnoma, bong, maktub, tayanch, kafolat.
4. Shaxs mikromaydoni: prezident, spiker, senat, senator, deputat, delegat, nomzod, sharhlovchi, elektorat.
5. Munosabat mikromaydoni: mushohada, mulohaza, muhokama, e'tirof, nigoh, minnatdorchilik, aks-sado, afsus, talab, taklif.
6. Holat mikromaydoni: ogohlik, hushyorlik, ziyraklik, loqaydlik, beparvolik, sovuqqonlik, beg'amlik.
7. Huquq mikromaydoni : ozodlik, ahillik, totuvlik, erkinlik, daxlsizlik, saylash, saylanish, yashash.
8. Axloq mikromaydoni: axloq, odob, fazilat, komillik, barkamollik, fozillik, xushxulqlik, tavoze', lafz, sahiylik, bag'rikenglik, samimiylik, xurmat-e'tibor, xushmuomalalik, qonun va axloq, isnod.
9. Ma'rifat mikromaydoni: savodxonlik, savodsizlik, siyosiy ma'rifat, fuqarolik huquqi, siyosiy savodxonlik, siyosiy madaniyat, siyosiy saboq, qonun va biz, siyosiy himoya, huquq nazariyasi, siyosiy talqin.
10. Makon mikromaydoni: Oliy majlis, parlament, qonunchilik palatasi, respublika, o'lka, mamlakat, okrug, siyosiy qo'riqsona.

Ko'rinadiki, siyosiy matbuot matnlarida qo'llanilgan til birliklariga xos mikromaydonlarni tashkil etadi. Bu maydonda siyosiy atamalar kattagina foizni egallaydi. Siyosiy matn tilida bo'lgani kabi siyosiy matbuot matnida ham atamalardan foydalanishda leksik norma qoidalari buzilayotganligining guvohi bo'lish mumkin.

Siyosiy matnlarda faqat terminlargagina emas, balki boshqa so'z turkumlariga oid so'zlarga ham alohida e'tibor qaratishga to'g'ri keladi. Chunki siyosiy matndagi har bir so'z inson taqdiri bilan bevosita bog'liqdir. Shuning uchun bu masalada huquqshunoslar bilan bir qatorda jurnalistlarga ham birday mas'uliyat yuklatilgan. Zero, jurnalist o'quvchiga haqqoniy va xolis axborotni yetkazish uchun butun kuch va mahoratini ishga solish lozim. Ayniqsa, jinoyatchilik bilan bog'liq voqea-hodisalar matbuot sahifalariga olib chiqilayotganida jurnalistlardan har bir jumla, har bir so'z ustida uzoq andisha qilib ish tutish talab etiladi.

«Ommaviy axborot vositalari to'g'risida» gi qonunning 27-moddasiga ko'ra, siyosiy yoki jismoniy shaxs ommaviy axborot vositasida e'lon qilingan haqiqatga to'g'ri kelmaydigan va o'zining sha'ni hamda qadr-qimmatiga dog' tushiradigan ma'lumotlar bo'yicha raddiya berishni tahririyatdan talab etish va o'z raddiyasini mazkur ommaviy axborot vositasi orqali e'lon qilishga haqli. Biroq hozirgi paytda ayrim ommaviy axborot vositalarida jinoyat sodir etganlikda gumon qilinayotgan shaxslarning ism-shariflarini yozish yoki «ismlar o'zgartirilgan» deb ta'kidlash odat tusiga kirgan.¹ Ma'lumki, qonunchilikda aybsizlik prezumptsiyasi tamoyili mavjud. Jurnalistning ijtimoiy haq-huquqi, burchi va majburiyati undan imkon qadar xolis, to'liq va haqqoniy axborotni tarqatishni talab etadi. Ayni paytda u sud hukmini oldindan «chiqarib qo'yish»ga urinmasligi lozim.

Siyosiy matbuot sahifalarida tez-tez ta'kidlab turilganidek, «siyosiy nashr-haqiqiy nashr» bo'lmog'i, undagi har so'z o'z o'zni va o'z ma'nosida qo'llanishi kerak.

O'zbek tilshunosligida frazeologizmlar va ularning publitsistik uslubda qo'llanilishi haqida bir qator tadqiqotlar olib borilgan² bo'lsada, siyosiy matbuotda qo'llaniladigan frazeologizmlarning o'ziga xos xususiyatlari tadqiqotchilar nazaridan chetda qolib kelmoqda.

¹ Misol uchun qarang: Норматов А., Мирзалиев И. Мудҳиш можаро// Адолат йўли, 2007 йил, 1 июнь.

² Qarang: Маматов А. Ўзбек тили фразеологизмларининг шаклланиши масалалари. Филол. фан. дакт. дисс. автореф. - Т., 1999; Абдусайдов А. Матбуот тилида окказионал фразеологизмлар // Ўзбек тили ва адабиёти, 2003, №4, 84-86-б. Абдусайдов А. Газета тилида фразеологизмлар. - Самарқанд, 1999.

Bizning siyosiy matbuot matnlari ustida olib borgan izlanishlarimizdan shu narsa ma'lum bo'ladiki, siyosiy matbuot sahifalarida fikrni obrazli bayon qilish, ta'sir kuchini oshirish maqsadida tilda mavjud bo'lgan iboralar ba'zan asl holicha, ba'zan esa ayrim o'zgarishlar bilan qo'llanilmoqda. Jumladan: «Janjalli uydan baraka ketadi»; «Muxbirimiz bong uradi»; «Tomdan tarasha tushganday», «Hafsalasi pir bo'lib»; «Nayrangga nuqta qo'yildi» ; «Taroziqa qarab tosh qo'ygan yaxshi»; «Qing'ir ish- keltirar tashvish» kabi.

Gazeta yoki jurnalda yozilgan narsani mutlaq to'g'ri deb qabul qilish kishilar ongida o'rnashib qolgan edi. Bunga, bizningcha, quyidagi obektiv subektiv faktorlarni sabab qilib ko'rsatish mumkin:

Gazeta va jurnallarda savodxonlikka jiddiy e'tibor qaratilar edi. Mas'uliyatsizlik oqibatida o'tib ketgan imloviy yoki ishoraviy xato uchun o'sha songa mas'ul bo'lgan musahhihdan tortib muharrirgacha jazolanar, xatto ishdan bo'shatishgacha bo'lgan choralar ko'rilar edi. Bugun unday emas. OAV miqdori kam, savodxonligi yaxshi edi. Bugun esa miqdor ko'p, savodxonlik yaxshi emas.

Matbuot faqat mafkurani emas, savodxonlikni ham targ'ib qilardi. Bugun esa asosiy e'tibor mafkuraga qaratilib, savodxonlikka bo'lgan diqqat- e'tibor bir oz susaydi.

Lotin alifbosiga asoslangan yangi o'zbek yozuviga bosqichma-bosqich o'tish jarayonida krill yozuviga e'tibor pasayib, yangi yozuv qonun-qoidalarini puxta o'zlashtirib olinmayapti.

Bu kabi jiddiy muammolar mutaxasislarni befarq qoldirayotgani yo'q, albatta. Buni monografiya tarzidagi ishlardan ham, turli yillarda vaqtli matbuot sahifalarida chop etilgan maqolalardan ham bilish mumkin.¹

1. Gazetaning juda ko'p sonlarida bo'g'in ko'chirish qoidalari qo'pol ravishda buzilmoqda. «XXI asr» ning 2011-yil sonlarida bosilgan bir qator maqolalarni bunga misol qilib keltirish mumkin: ta-shqari, ma-vqei, ay-tganda, Samarq-and, as-rdan, shunin-gdek ... va boshqalar.

¹ Qarang: Абдусаидов А. Газета жанрларининг тил хусусиятлари. Филол. фан. док. дисс. автореф. -Т., 2005; Маъруфова З. Ёзувда хатога йўл қўймайлик // Мухбир, 1971, №4, -В 34; Узақов Ҳ. Имлода саводхон, ёзма нутқда баркамол бўлайлик // Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 1988 йил, 4 март.

2. Hozirgi zamon davom felining qo'shimchasi –yapti o'rnida ko'pincha –ayapti yozilish hollari kuzatiladi. Bu hol hatto sarlavhalarda ham ko'p kuzatiladi: «Andijonda bolalarga bepul transport xizmati ko'rsatilayapti» (28.05.2011); «Janob tadbirkor sizni markazda kutishayapti» (17.02.2011); «Yoshlar qanoti o'z imkoniyatlaridan yetarlicha foydanayaptimi» (24.02.2011).
3. Paronim so'zlarni farqlamaslik oqibatida imlo qoidalari buzilmoqda. Jumladan, «yondash» o'rnida «yondosh» yozilmoqda: «Ma'muriy huquqni (aslida «huquqning» bo'lishi kerak) barcha va uni boshqa institutlarga muvofiqligini ijtimoiy vazifasini aniqlashni prinsipial yangicha yondoshuvini taqozo etadi».
4. Juft so'zlarni chiziqchasiz yozish holatlari kuzatilyapti: «Mahalliy xom ashyo negizida» (15.01.09)
5. Matn ichida bosh harflar imlosi buzilmoqda: «Marhamat Matvafayeva, **B**iologiya fanlari nomzodi» (5.08.09); «Mashina-traktor parki»ochiq aksiyadorlik jamiyatining hisob raqamiga o'tkazdi. Va belgilangan tartib-qoidaga asosan...» (29.10.09).

Tinish belgilari, xuddi harf kabi, u yoki bu til grafik sistemasining tarkibiy qismi sanaladi. Juda ko'p ma'no ottenkalar tinish belgilari orqali ham ifodalanadi; yozuvchining g'oya va maqsadini tushunishda ana shu tinish belgilari yordam beradi. Birgina vergul yoki boshqa tinish belgisining o'rni almashtirilishi inson hayot-mamoti hal qilinganligi haqidagi fikrlar ilgari surilgan. Bunga misol sifatida «O'lim, yo'q shavqat!» «O'lim yo'q, shavqat!» tipidagi gaplar asosida keltiriladigan rivoyatlarni eslash mumkin. Shuning uchun olimlar tilning boshqa normalariga rioya qilmaslik holatlariga alohida e'tibor qaratish bilan birga tinish

belgilarini to'g'ri qo'llash masalasiga ham qayta-qayta murojaat etganlar.¹ Bu masalada matbuot sahifalarida ilmiy bahslarga ham kirishganlar.²

Tinish belgilari, birinchi galda, mazmun talabi va publitsistik nutqda katta ahamiyatga ega. Shuning uchun shoir va yozuvchilar, jurnalistlar tinish belgilarining yozma nutqda tutgan o'rniga alohida e'tibor berganlar.

K. Paustovskiy «Oltin gul» kitobida shunday bir fakti keltiradi: Bir boshlovchi yozuvchi Paustovskiyga yangi yozgan asarini olib keladi. Qo'lyozmani bir jurnal redaksiyaga yuborganini, lekin bosilmay qaytarilganini eslatib, shikoyatga ham o'tadi. Asarni Paustovskiy ham o'qiydi-yu, hech narsa tushunmaydi: unda biron tinish belgisi qo'yilmagan ekan. Paustovskiy asarning kerakli yerlariga tinish belgilarini qo'yib, jurnal redaksiyasiga yuboradi. U bosilib chiqadi va katta shov-shuvlarga sabab bo'ladi.³

Jurnalistlarning punktuatsiya qonun-qoidalarini yaxshi bilmasliklari yoki e'tiborsizliklari tufayli siyosiy matbuot sahifalarida ham bir qator punktuatsion xatolarga yo'l qo'yish hollari kuzatilmoqda.

Ularni umumlashtirgan holda quyidagicha guruhlash mumkin:

1. Punktuatsiyaga oid deyarli hamma lingvistik adabiyotlarda qo'shma gap qismlari orasida keladigan ammo, lekin, biroq, go'yo, chunki, shuning uchun, natijasida, esa kabi bog'lovchilardan oldingi gapdan keyin vergul qo'yish qoidasi aytilgan. Bu bog'lovchilardan keyin esa vergul ishlatilmaydi. Biroq tadqiqot obektimiz bo'lgan gazeta sahifalarida bu qoida buzilayotganligini kuzatish mumkin: «Ammo, Ishtixondek qishloq xo'jaligi rivojlangan tumanda davlat siyosati darajasidagi muhim masalaga yetarli e'tibor berilmayapti» (29.10.09)

2. Zarur o'rinlarda, ayniqsa, sarlavhalarda tire qo'yilmagan: «Barkamol avlod millat tayanchi» (21.10.09). bu gapning egasi – «avlod» so'zidan keyin tire

¹ Бобоева А. Газета тилининг табиийлиги учун //1971, №1. -В 33; Рустамов Х. Вергул ҳам маъно билдиради. // Мухбир, 1976, №8, -В 38; Жуманазаров Э.Сарлавҳалар синтаксиси ҳақида.//Мухбир, 1971, №5; Назаров К. Тиниш белгилари ва ёзма нутқ. - Т.: Фан, 1974; Абдусаматов А. Газета тилида пунктуацион нормалар // Журналистнинг тилдан фойдаланиш маҳорати. - Самарқанд, 2004. -В.77-79.

² Рустамов Х. Вергул ҳам маъно билдиради.// Мухбир, 1976, №8, -В 38.

³ Qarang: Рустамов Х. Ўша асар, -В.38.

qo'yilishi kerak edi; «Til bilgan el bilar» gapida ham xuddi shunday xato takrorlangan.

3. Darak mazmunidagi gaplardan keyin undov belgisi qo'yilishi hollari kuzatiladi: «O'zbekiston karatechilari- eng kuchli!» (17.12.09).

Umumiy xulosa

1. Mafkura poligonlari yadro poligonlariga nisbatan ham ko'proq kuchga ega bo'lgan bugungi kunda inson qalbi va ongi uchun kurash tobora kuchayib bormoqda. Ong va qalbni egallashning xilma-xil usul va vositalari mavjud bo'lib, ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, madaniy va boshqa muammolarni bartaraf etish uchun keng jamoatchilikni va tegishli davlat idoralarini jalb qilish kuchiga ega bo'lgan OAV bularning orasida alohida o'ringa ega.

2. Aholining siyosiy savodxonligini oshirish yo'lidan borayotgan mamlakatimizda bor haqiqatni keng ommaga ro'y-rost yetkazish orqali jamiyat tasavvurida uyg'onishi mumkin bo'lgan turli xil mish-mishlaru yolg'on fikrlar, bo'xtonu g'iybatlarga o'rin qoldirmaslik, ularning va siyosiy ongini shakllantirish uchun xizmat qiladigan OAV ning qadr-qimmati tobora ortib bormoqda.

3. Jamiyatda demokratik tamoyillarni vujudga keltirish uchun ijtimoiy hayotning barcha sohalarini erkinlashtirish zarurati vujudga keldi. Buning uchun esa, eng avvalo, OAV va matbaachilikning erkin faoliyati uchun zarur kafolat va sharoit barpo etish lozim bo'ldi. Shunday ezgu niyatda qabul qilingan «Ommaviy axborot vositalari to'g'risida», «Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida», «Axborotlashtirish to'g'risida» gi qonunlar respublikamiz OAV faoliyatida tub burilish yasadi.

4. Ijobiy o'zgarishlar natijasida matbuotning har bir kishi o'z fikrini ifoda eta olishiga imkon beradigan, demokratik qadriyat va tushunchalarni himoya qiladigan, fuqarolarning siyosiy, iqtisodiy ongini shakllantiruvchi erkin minbarga aylanishi sari dadil qadam bosildi.

5. Siyosiy matbuot zimmasiga siyosat tilini fuqarolar qalbi va ongiga yetkazishdek mas'uliyatli vazifa yuklatilgan. Buni g'arb va rus tilshunosligida anchagina jiddiy e'tibor qaratilishi natijasida tilshunoslik va sotsiologiya fanlarining tutash nuqtasida yuzaga kelgan lingvosotsiologik aspektda hamda tilshunoslik va siyosatning aloqadorligida yuzaga kelgan lingvopolitologik aspektda tadqiq etilgandagina ko'zlangan natijalarga erishish mumkin.

6. Tarixiy jarayonning mantiqiy davomi o'laroq keyingi yillarda o'ziga xos mazmun va mundarijaga ega bo'lgan siyosiy matbuot shakllandi. Hozirgi kunda respublikamizda siyosiy yo'nalishda faoliyat yuritayotgan siyosiy partiyalarning gazetalari fuqarolar siyosiy bilimini oshirishga o'z hissasini qo'shmoqda, jamiyatda siyosiy ong va madaniyatini yuksaltirish ishiga ijobiy ta'sir etmoqda.

7. Siyosiy matbuot matnini lingvosotsiologik aspektda adabiy norma muammolari nuqtai nazaridan tadqiq etish uchun uning yetakchi janrlari haqida ma'lumotga ega bo'lish lozim. Chunki matn tili va uslubi uning janri bilan bevosita bog'liq holda shakllanadi.

8. Keyingi yillarda tilshunoslikda alohida e'tibor qaratilayotgan til sistemasiga maydon asosida yondashuvni siyosiy matbuot matniga tadbqiq etish soha matbuoti leksikasining o'ziga xos maydoni va mikromaydonlari haqida muayyan xulosa chiqarish imkonini beradi.

9. Siyosiy terminlarni, siyosatga doir ibora va jummalarni publitsistik matnga olib kirishda jurnalistlarning tarmoq nashrlariga ixtisoslashmaganliklari bilan bog'liq kamchiliklar sezilib qolmoqda.

10. Siyosiy bilimlarni keng ommaga yetkazish uchun targ'ibotchilarning, jumladan, jurnalistlarning o'zlari ijtimoiy-siyosiy, siyosiy fanlarni chuqur egallagan bo'lishlari lozim. Shuning uchun keyingi yillarda huquqshunos jurnalist, iqtisodchi jurnalist, siyosatshunos jurnalist kabi jurnalistikaning tarmoqlashuviga kuchli ehtiyoj sezilmoqda.

11. Siyosiy matbuot tili va uslubini lingvosotsiologik va lingvopolitologik aspektda tadqiq etish ham nazariy, ham amaliy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

Siyosiy adabiyotlar:

1. Каримов И.А. Юксак маънавият—енгилмас куч. — Т.: Манавият, 2008.
2. Каримов И.А. Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура.- Т.: Ўзбекистон, 1996, 48-б.
3. Каримов И.А. Ҳозирги босқичда демократик ислохотларни чуқурлаштириш муҳим вазифалари.- Т.: Ўзбекистон, 1996.
4. Каримов И.А. Ўзбекистон XXI асрга интилоқда.Т.: Ўзбекистон,1999, 30-б.
- 5.Ўзбекистон Республикаси Конституцияси, 67-модда.-Т.: Ўзбекистон, 2003.
- 6.Ўзбекистон Республикасининг «Ахборотлаштириш тўғрисида»ги Қонуни. // Хўжалик ва ҳуқуқ, 2004 йил, №4.
- 7.ОАВ фаолиятини янада ривожлантириш соҳасидаги ислохотларнинг устувор йўналишларини амалга ошириш Концепцияси // Фуқаролик жамияти (махсус сон) //2007 йил.

Ilmiy adabiyotlar:

1. Абдусайдов А. Матбуот тилида окказионал фразеологизмлар// Ўзбек тили ва адабиёти, 2004, №4.
2. Абдусайдов А. Матбуот тилида окказионал фразеологизмлар // Ўзбек тили ва адабиёти, 2003, №4, 84-86-б. Абдусайдов А. Газета тилида фразеологизмлар. - Самарқанд, 1999.
- 3.Абдусайдов А.Газета жанрларининг тил хусусиятлари. Филол. фан. док. дисс. автореф. -Т., 2005.
- 4.Абдусаматов А. Газета тилида пунктуацион нормалар // Журналистнинг тилдан фойдаланиш маҳорати. - Самарқанд, 2004.
- 5.Абдуазизова Н. Матбуот ва суз еркинлиги. — Т.: Академия, 2006.
6. Абдуллаев Ж. Журналистнинг ижтимоий бурчи // Хаёт ва қонун, 2004-йил, №4.

7. Алпонова С. Фитрат публицистикасида миллий истиқлол мавзуси//Ўзбек тили ва адабиёти, 2000, №2.
8. . Бегматов Э., Бобоева А., Асомиддинова М. Адабий норма ва нутқ маданияти. - Т.: Фан, 1983.
9. Бобоева А. Газета тили ҳақида. - Т.: Фан,1983.
10. Бегматов Э., Маматов А. Адабий норма назарияси. – Т., 1-қисм 1997, 2-қисм 1998, 3-қисм 1999.
11. Бурячок А.А. Формирование социально политической лексики. – Киев, 1983.
12. Волков А.Г. Использование политического текста институтами власти// http://www.nbuv.gov.ua/Articles/KultNar/knp47/knp47_140-42.pdf
13. Гаврилова М.В. Президентский дискурс как предмет политической лингвистики//Тезисы докладов. IV Всероссийский конгресс политологов «Демократия, безопасность, эффективное управление: новые вызовы политической науке». М., 2006. С. 63 – 65.
- 14.. Гаврилова М.В. Лингвистический анализ политического дискурса // <http://politanalysis.narod.ru/gavrilova3.html>
15. Дадабоев Х. Алишер Навоий асарларидаги ижтимоий- сиёсий терминларнинг эски туркий обидалар лексикасига муносабати// Алишер Навоий таваллудининг 550 йиллигига бағишланган илмий конференция тезислари. - Тошкент: Фан, 1991.
16. Демьянов В.З. Интерпретация политического дискурса в СМИ// <http://evartist.narod.ru/text12/09.htm>
17. Жамилова Б.Истиқлол даври ўзбек болалар публицистикаси// Ўзбек тили ва адабиёти, 2003, №6.
18. Искандарова Ш. Тил системасига майдон асосида ёндашув. -Т.: Фан, 2007.
19. Каримов С. Тил таълими ва меъёр. – Т.: А.Қодирий халқ мероси нашриёти, 2002.

20. Қўнғиров Р., Каримов С., Қурбонов Т. Нутқ маданияти асослари. - Самарқанд, 1985.
21. Қўчимов Ш. Ўзбекистон Республикаси қонунларининг тили. Филол. фан. номз. дисс. автореф.- Т., 1995.
22. Лингвистический энциклопедический словарь – М.:СЭБ1990–с .380.
23. Маҳкамов Н. Адабий норма ва плеоназм. – Т.: Фан, 1988; Қўнғиров Р., Бегматов Э., Тожиев Ё. Нутқ маданияти ва услубият асослари. – Т.: Ўқитувчи, 1992.
24. Маматов А. Ўзбек тили фразеологизмларининг шаклланиши масалалари. Филол. фан. дакт. дисс. автореф. - Т., 1999.
25. Мўминов С. Нутқда сўзнинг белгилик ва семантик табиатига муносабат хусусида // "Ўзбекистон мустақиллиги - унинг фани ва технологияларини ривожлантириш кафолати" мавзуйидаги иккинчи республика илмий коллективум маърузалар тўплами. - Тошкент,1998.
- 26.Мўминов С., Расулов Қ. Коммуникатларнинг ижтимоий роли ва нутқий мулоқот ҳақида // Услубшунослик ва фразеологиянинг долзарб муаммолари.- Самарқанд, 2007.
- 27.Назаров К. Тиниш белгилари ва ёзма нутқ. - Т.: Фан, 1974.
28. Қўнғиров Р., Каримов С., Қурбонов Т. Нутқ маданияти асослари. - Самарқанд, 1-қисм, 1985; 2-қисм 1986; 3-қисм 1987.
29. Репина Е.А.Политический текст как средство речевого воздействия//[http://www.psyh-portret.ru/collection/ repina.html](http://www.psyh-portret.ru/collection/repina.html)
30. Собиров А. Ўзбек тилининг лексик сатҳини системалар системаси тамойили асосида таҳлил этиш - Т.:2004; Мирзакулов Т. Морфем парадигматикаси ва синтагматикаси масалалари: Филол. фан. докт. дисс. фвтореф. -Т., 1994.
31. Тоғаев О. Публицистика жанрлари. – Т.: Ўқитувчи,1976.
- 32.Устюгова Т.В. Феномен политического текста. Алтунян А.Г. Анализ политических текстов: Учебное пособие.–М.: Университетская книга; Логос, 2006. – 384 с.

33. Ҳожиёв А . Лингвистик терминларнинг изоҳли луғати. -Т.: Ўқитувчи, 1985.

34. Ҳақимов М. Ўзбек тилида матннинг прагматик талқини Филол. фан. докт. дисс. автореф. - Т., 2001.

35. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. -Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 1- 2-том, 2006.

36. Чудинов А. П. Россия в метафорическом зеркале: когнитивное исследование политической метафоры. Екатеринбург, 2001;

37. Чудинов А. П. Российская политическая лингвистика: этапы становления и ведущие направления. М., 2003.

38. [www.ecsoeman.edu.ru\(socccis/msg/296116.html](http://www.ecsoeman.edu.ru/socccis/msg/296116.html)

39. [www.ecsoeman.edu.ru\(socccis/msg/296116.html](http://www.ecsoeman.edu.ru/socccis/msg/296116.html)

40. [www.nir.ru/sj/sj/sj3-01](http://www.nir.ru/sj/sj/sj3-01_khaz.html) khaz.html

Ilmiy-ommabob adabiyotlar:

1. Абдусаидова А. Журналист маҳорати // Ўзбекистон матбуоти. 2003, № 3.

2. Абдусаидов А. Газета жанрларининг тил хусусиятлари. Филол. фан. докт. автореф. - Тошкент, 2005.

3. Асосий жанрлардан бири//Мухбир, 9-сон.

4. Баҳодиров С. Област газеталарида очерк// Мухбир, 1976, 8-сон.

5. Бобоева А. Газета тилининг табиийлиги учун //1971, №1.

6. Бобоева А. Газета тилининг баъзи грамматик-стилистик хусусиятлари ҳақида // Мухбир, 1976, №7, 34-36-б;

7. Бир сонга еллик сатр. Газета жанрлари ҳақида суҳбат// Мухбир, 1973, 1-сон.

8. Викторов В. Ғаройиб ва оғир жанр// Мухбир, 1977, 4-сон.

9. Газетада обзор// Мухбир, 1975, 12-сон.

10. Жанр ҳақида суҳбат// Мухбир, 1975, 9-сон.

11. Жуманазаров Э.Сарлавҳалар синтаксиси ҳақида.//Мухбир, 1971, №5.
12. Интервьюнинг катта оиласи// Мухбир, 1973, 3-сон.
13. Йўлдашев Б. Тил таҳлили// Ўзбекистон матбуоти, 2003, № 3.
14. Мақола устида қандай ишлаш керак? //Мухбир, 1975, 11-сон.
1. 15. Маъруфова З. Ёзувда хатога йўл қўймайлик / / Мухбир, 1971, №4, -В 34; Узақов Ҳ. Имлода саводхон, ёзма нутқда баркамол бўлайлик / / Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 1988 йил, 4 март.
16. Муҳаммаджонова Г. Газета тили ва сўз бойлиги// Мухбир, 1976, №10.
17. Норматов А., Мирзалиев И. Мудҳиш можаро// Адолат йўли, 2007 йил, 1 июнь.
18. Рустамов Ҳ. Вергул ҳам маъно билдиради. // Мухбир, 1976, №8.
19. Туропова М. Жумлалар пухта бўлсин// Мухбир, 1976, №11
20. Умиров С. Жанр масъулияти// Мухбир, 1975, 5-сон
- 21.Х.Дўстмуҳаммад. Ҳурликнинг жозибаси ва юки. Ҳуррият, 2002, 11 сентябрь.
- 22.Ҳакимов Ж. Мустақил, ўз-ўзини таъминлайдиган босма ОАВни ривожлантириш йўлида // Фуқаролик жамияти, 2006, №4.
- 23.Ғафуров И.Вақт – учиб бораётган қуш / ҲУҚУҚ, 2003 йил, 5 февраль.
- 24." XXI аср" газетасининг 2010-2011 йил сонлари.